

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti

Maktabgacha ta‘lim kafedrası

“Himoyaga tavsiya etildi”

Fakultet dekani:

_____ dots. Sh.Nurullayeva

“ _____ ” _____ 2019 yil

MAXMUDOVA SITORA JAMOLIDDIN QIZI

5111800- MAKTABGACHA TA‘LIM YO‘NALISHI

bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun

**“Maktabgacha yoshidagi bolalarda estetik-ekologik tasavvurni o‘stirish
yo‘llari” mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dots. N.Oripova

Maktabgacha ta‘lim”
kafedrası mudiri, dots. N.Oripova

“ _____ ” _____ 2019 yil

Qarshi- 2019

MUNDARIJA:

Kirish	3
I BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ESTETIK-EKOLOGIK TASAVVURNI O‘STIRISHNING NAZARIY ASOSLAR.....	9
1.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik-ekologik tasavvurni o‘stirish pedagogik muammo sifatida.....	9
1.2. Yosh avlodda estetik-ekologik tasavvurni o‘stirishning tarixiy ildizlari.....	15
II BOB. BOLALARDA ESTETIK-EKOLOGIK TASAVVURNI O‘STIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI.....	22
2.1. Bolalar estetik-ekologik tasavvurini o‘stirishning mazmuni va shakllari.....	22
2.2. Ekskursiyalar – maktabgacha yoshidagi bolalar estetik-ekologik tasavvurlarini shakllantirish vositasi sifaida.....	30
2.3. Muammoga doir tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi va uning samaradorlik darajasi.....	40
Xulosa	51
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	52
Ilovalar	54

K I R I SH

Mavzuning dolzarbligi: Yosh avlodda ona tabiatni asrab-avaylash va uning go‘alligidan bahramand bo‘lish hissini tarbiyalash bugungi kunning dolzarb va kechiktirib bo‘lmas masalalaridan biridir. Dunyoda eko muvozatining buzilishi, insonning tabiat va uning boyliklaridan pala-partish foydalanishi, texnikaning jadal su‘atlar bilan rivojlanib borishi, turli tabiiy ofatlar, tabiat resurslarining kamayib borishi kabilar ushbu muammoning naqadar tashvishli va e‘tiborga molikligidan dalolat beradi.

Inson tabiatning bir bo‘lagi, uni tabiatdan ayri holda tasavvur eta olmaymiz. Inson barcha ehtiyojlarini tabiatdan qondiradi. Suv, havo, oziq moddalar, kiyim-kechak, turar joy bularning barchasi tabiatdan olinadigan manbalardir. Shu bilan birga, inson estetik zavqni ham tabiatdan oladi. Tabiat go‘zalligidan bahramand bo‘lish kishi uchun ajoyib zavq beradi. Shu boisdan rassom va shoirlar, qolaversa barcha ijodkorlar o‘z sara asarlarini tabiat qo‘ynida yaratadilar. Zilol suv, quyosh, oy, rango-rang gullar, turli-tuman qushlar, yam-yashil bog‘-rog‘lar, purviqor tog‘lar, havonot olami-bularning barchasi inson uchun go‘llik va kuch-qudrat manbai hisoblanadi. Biz doimo tilimizda tabiat so‘ziga ona so‘zini qo‘shib aytamiz. Tabiatni onaga qiyoslaymiz. Sababi, u biz uchun ona kabi mehribon va saxiy, muqaddas. Bunga misol qilib, tabiatning bir bo‘lagi hisoblangan quyoshning o‘z nurini har tong barchaga barobar ulashgani, oy va yulduzlarning kechasi yo‘llarinimizni yoritgani, tuproqning turli sarxil mevalarni bizga tuhfa etgani kabi ko‘plab misollarni keltirishimiz mumkin. Shu boisdan biz tabiatni asrab-avaylashimiz, undan oqilona foydalanish, uning sofliğini asrab qolishga intilishimiz lozim.

Demak, bugungi kun ta‘lim jarayoni oldiga qo‘yiladigan asosiy masallardan biri ham – bu bolalarga kichik yoshdanoq tabiatga ijobiy va ehtiyotkorona munosabat hamda uning go‘zalliklaridan bahramand bo‘lishni o‘rgatishdan iborat. Ushbu masala bugungi kunga kelib, umumdavlat ahamiyatiga ega masalaga aylanib ulgurdi. Ana shu maqsadda davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan tabiatni asrash, ekomuhitni yaxshilash, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish

to'g'risida qator qonunlar qabul qilindi. Xususan, 2013 yil 12 noyabrda "Ekologik nazorat to'g'risi"da, 2000 yil 25 mayda "Ekologik ekspertiza to'g'risida" va "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida", 2017 yilda "Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi [26] ko'plab qonunlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Shubhasiz, ushbu qonunlarni qabul qilinishida mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.Karimov [5; 326] va Prezident Sh. Mirziyoyevning [3, 4] xizmatlari katta hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki, tabiatni asrab-avaylash, ekomuvozanatni barqarorlashtirish to'g'risida mamlakatimiz hukumati va Prezident shaxsan qayg'urib kelmoqdalar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ona tabiatni asrab-avaylash, uning go'zalligini tarannum etish, xalqimizning qadimiy qarashlarida o'z ifodasini topgan, jumladan, maqollar, rivoyatlar, afsonalar, ertak va qo'shiq, doston kabi og'zaki janr turlarida tabiat go'zalligidan zavq olish hissi namoyon bo'ladi. Masalan, "Daraxtning husni — bargi bilan mevasi", "Cho'lda o'sgan giyoh ham — cho'lga husn", "Kapalak gulni deydi, Bulbul — kuyini", "Ot — yigitning yo'ldoshi", "Toy otga yetkazar, Ot — murodga" kabi maqollarda ona tabiatning go'zalligi va benuqsonligi ifodlanadi.

Ushbu masala yozma diniy manbalarda ham bot-bot tilga olinadi. "Avesto"da [7;132] insonning o'zi tabiatning bir bo'lagi sifatida tilga olinadi va u tabiatni asrab-avaylashga mas'ulligi ta'kidlanadi. Islom dini manbalarida esa har bir inson tabiatning sofligini saqlashga majbur va undagi ne'matlarni isrof qilmasligi lozim deyiladi.

Abu Rayon Beruniy[28;464], Abu Ali ibn Sino[17; 182], Amir Temur[14;64], Alisher Navoiy[28;464], Zahiriddin Muammad Bobur [15;286] kabi allomalarimiz ham asarlarida tabiatdan oqilona foydalanish kerakligini va uning go'zalligidan zavqlanish lozimligini yosh avlodga o'qtirib o'tadi.

Bu borada allomalardan Abu Rayxon Beruniyning [28;464]tabiat oid fikrlari va qarashlari diqqatga sazovor. Ya'ni u faoliyati davomida o'simliklar olamini puxta o'zlashtirish bilan birga, ularning dorivor jihatlarini ham ko'rsatib o'tadi.

Ibn Sino [17;182] mashhur tabib sifatida tabiatdagi minglab-millionlab o‘simliklarni o‘rganar ekan, ularni turlarga ajratadi, dorivorlik xususiyatlari va kasalliklarga shifobaxshligi, ozuqaviyligini inson salomatligi uchun naqadar foydali ekanligini amaliy ko‘rsatmalar bilan isbotlaydi.

Mashhur sarkarda Amur Temur [14;64] markazlashgan Movorounnahr diyori barpo etib, uning gullab-yashnashi uchun barcha amallarni bajardi, ya’ni qay bir yerda bo‘lmasin go‘zal bog‘u-rog‘lar barpo etib, uning parvarishishiga qo‘li gul bog‘bonlarni jalb etadi. Shu bilan birga sarkarda o‘z davrida ulkan suv inshootlarini barpo etdi, suvni isrof qilish gunohligini o‘z farzandlari va ulomalariga ta’kidladi.

O‘z asarlarida ona tabiatning betakrorligini kuylagan alloma Zahiriddin Muammad Boburdir [15;286]. U o‘zining mashhur asari “Boburnoma”da juda ko‘plab mamlakatlarning tabiati, o‘simliklari va hayvonot dunyosini tilga oladi. Ularning har bir xususiyatiga to‘xtalar ekan, rivojlanishi, ko‘payishi, oziqlanishi barcha jihatlarini sanab o‘tadi.

Ushbu tahlildan ko‘rinadiki, tabiatni asrab-avaylash, uning go‘zalligidan bahramand bo‘lishga chorlash masalasi nafaqat bugungi kunning muammolaridan, balki ajdodlarimizning ham diqqat markazida bo‘lgan masalalardan biri bo‘lgan. Ammo bugungi kunga kelib, yoshlarda tabiatni asrab-avaylashga bo‘lgan mas’uliyat, e’tiborning tobora pasayib borayotgani har bir birimizni tashvishga solmay qolmaydi. Bizningcha buning sabablari quyidagi bilan izohlanadi:

1. Yoshlar diqqati va qiziqishlarini fan-texnikaning yutuqlariga nisbatan yuqorilab borayotganligi;
2. Bolalar yashaydigan hududlarda sof tabiatning kamayib ketishi;
3. Ota-onalar va ta’lim muassasi xodimlarining bolalarga tabiat go‘zalligiga his etishga nisbatan diqqat va e’tiborni yetarli darajada ko‘rsata olmaganliklari;
4. Oilada bolani mehnatga jalb etmaslik, ular bilan birgalikda gul va daraxt, o‘simliklarni parvarish qilmaslik.

Ushbu omillarda e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning barchasi bolalarda tabiatni asrab-avaylash, uning go'zalligini his etish, unga e'tiborli bo'lish kabi bolalardagi ijobiy fazilatlarni shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Biz pedagoglarning vazifamiz esa tabiat go'zalligini bolalarni his eta olishi, undan zavqlanishi uchun imkoniyat yaratishdan iborat. Shu bois biz bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini **“Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik-ekologik tasavvurni o'stirish yo'llari”** deb nomladik.

Tadqiqot maqsadi: maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik-ekologik tasavvurni shakllantirishning pedagogik asoslarini aniqlash va ularda tabiat estetikasiga bo'lgan qiziqishni shakllantirishning tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik-ekologik tasavvurni shakllantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: bolalarda estetik-ekologik tasavvurni shakllantirish mazmuni, usullari, pedagogik shart-sharoitlari.

Tadqiqot vazifalari:

1. Bolalarda estetik-ekologik tasavvurni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslash.
2. Estetik-ekologik tasavvurni shakllantirishning tarixiy ildizlarini o'rganish va talil qilish.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik-ekologik tasavvurni shakllantirishning mazmuni va omillarini aniqlash.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Agar:

- Bolalarda estetik-ekologik tasavvur ilk bolalik yillaridanoq shakllantirilsa;
- Bolalarning psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda ularning estetik-ekologik tasavvuri shakllantirilsa;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik-ekologik faoliyatga tayyorlash jarayonida fanlararo aloqadorlik imkoniyatlaridan foydalanilsa, bolalarda estetik-ekologik tasavvurni shakllantirish jarayonining samaradorligi ortadi.

Tadqiqot metodlari:

1. Nazariy talil,
2. So'rovnoma, shavol-jhavob.
3. Suhbat.
4. Kuzatish.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyovning ekologik muammolarni o'rganish hamda ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, Sharq mutafakkirlarining bu boradagi qarashlari, O'zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonuni, ekologik ta'limga oid me'yoriy hujjatlar, mavzuga oid ilmiy-pedagogik manbalar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik-ekologik tasavvurni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi asoslandi;
- Bolalarda estetik-ekologik tasavvurni shakllantirishning tarixiy ildizlari o'rganildi;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik-ekologik tasavvurni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni, shakl, usullari aniqlandi;

Tadqiqotning ilmiy-amaliy amiyati: pedagogika fani maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik-ekologik tasavvurni shakllantirishning haqidagi nazariy yondashuvlar, tarixiy tajribalar bilan boyitildi.

Tadqiqotda keltirilgan g'oyalardan maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrilar, tarbiyachilar tarbiyachilar malakasini oshirish kursi tinglovchilari foydalanishlari mumkin.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik-ekologik tasavvurni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi.
2. Bolalarda estetik-ekologik tasavvurni shakllantirishning pedagogik asoslari.

3.Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik-ekologik tasavvurni shakllantirishning mazmuni, shakli va usullari.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi: tadqiqot kirish, 2 bob, 5 ta paragraf, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ESTETIK- EKOLOGIK TASAVVURNI O‘STIRISHNING NAZARIY ASOSLAR

1.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik-ekologik tasavvurni o‘stirish pedagogik-psixologik muammo sifatida

Tabiat va inson munosabatlari muammosi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Insonning tabiatni o'zgartirishga bo'lgan harakati borgan sayin keskinlashib bormoqda. Shu sababdan ham bu muammo insoniyat oldiga katta mas'uliyat, burch, tabiatga ma'naviy-axloqiy yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda olimlar, ayniqsa ekologlar tabiatni kelajak avlodlar ham uchun qimmatli katta ekanligi ta'kidlanmoqdalar, ya'ni tabiat boyliklari va sofligini farzandlarimiz uchun asrashimiz, undan oqilona foydalanish muammosiga burch va mas'uliyat bilan yondoshish zarurligini qayd etmoqdalar.

Bolalar tabiat vositasida estetik-ekologik tarbiyalash shaxsni har tomonlama rivojlanishining muhim omilidir, biroq tarbiyalanuvchida tabiatga qiziqish va u haqida tasavvur bo'lmasa, bu vazifani amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun bolalarda estetik-ekologik tarbiyani shakllantirish – bevosita ekologik, ma'naviy tarbiyalashning ilk asosidir.

Bolalarda tabiatga qiziqish va uni asrab-avaylashi dastlab uni his etish, idrok qilish va tasavvur etish orqali shakllantirib boriladi. Shu ma'noda biz “O‘zbek tilining izohli lo‘g‘ati”da tasavvur tushunchasi mazmuni qanday ochib berilganligiga e'tiborni qaratdik. Ushbu lo‘g‘atda aytilicha “Tasavvur-arabcha so‘z bo‘lib, u o‘ylash, xayol qilish, ko‘z oldiga keltirish, o‘ylab zehnda gavdalantirish.

1. Narsa, hodisa va sh.k. haqida kishi ongi-xayolidagi ma'lumot, bilim, tushuncha.
2. Shunday ma'lumot, tushuncha, bilim shakllanishining manbai sifatidagi ong, xayol [29;7].

Xuddi shu sahifada “tasavvur qilmoq” so‘zining ma’nosi quyidagicha ochib beriladi:

1. Xayolda tiklamoq, gavdalantirmoq.
2. Idrok qilmoq [29;7].

Ushbu ta'rifni tahlil qiladigan bo'lsak, tasavvur bu - ma'lumot, bilim, tushuncha asosida narsa, voqealarni ongda idrok qilish, gavdalantirishdir.

Psixologik tadqiqotlarga ko'ra bolaning dunyoni hissiy idrok etishi dastlab sezgilar orqali amalga oshiriladi. Ya'ni bola ko'rgan va eshitgan, mazasini bilgan, ushlab ko'rgan narsa va predmetlari bilan munosabat o'rnata boshlaydi. Demak, sezgilar bola uchun atrof-muhit to'g'risida va kishilar haqida yagona bilish manbai sifatida xizmat qiladi. Sezgilar shunday bir informatsion kanalki, ular tashqi olamdan va ichki tana a'zolaridan keladigan barcha holatlar, taassurotlar aynan xuddi shu yo'llar orqali miya po'stiga yetib boradi, insonga ta'sirlarga nisbatan to'g'ri javob reaksiyalari qaytarishga yordam beradi [30;534].

Bolalar estetik-ekologik tasavvurini shakllanishida ishtirok etadigan navbatdagi psixik jarayon bu—idrokdir. Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon hisoblanganligi sababli barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi, aks ettirishda ishtirok qiladi [30;534].

Psixologiya fanida idrok muayyan shakllarga ajratilib tadqiq qilinadi, vaqt, harakat, fazo yordami bilan atrof-muhitning, biosferaning, ijtimoiy turmushning mohiyati yuzasidan axborotlar ma'lumotlar, xususiyatlar aks ettiradi. Borliqdagi narsa va hodisalarning yashash shakli, uzluksiz ravishda harakatda bo'lishi, muayyan obyektiv vaqt birligida hukm surishi inson ongida bevosita in'ikos qilinadi. Odatda, inson tomonidan vaqtni idrok qilish, asosan, ruhiy hodisalar, holatlar, vaziyatlar, xususiyatlarning o'zaro o'rin almashinuvi tufayli namoyon bo'ladi va o'ziga xos tuzilishi bilan mazkur jarayonning boshqa shakllaridan farq qilib turadi.

Estetik-ekologik tasavvurni shakllanishida ishtirok etadigan yana muhim psixik jarayonlardan biri diqqat hisoblanadi. Bola tabiatga, tevarak-atrofga o'z diqqatini qaratmasa, unda tasavvur shakllanmaydi. Diqqat bola faoliyatining

barcha turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning va ularni samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biridir. Bola faoliyati qanchalik murakkablashib borsa diqqatga shunchalik yuksak shartlar va talablar qo'yadi. Bola ziyrakligi, farosatligi, tez payqashi, sinchkovligi, dilkashligi uning turmush sharoitida, do'stlari bilan munosabatida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Diqqat aqliy faoliyatning barcha turlarida ishtirok etadi, insonning xatti-harakatlari ham uning ishtirokida sodir bo'ladi.

Psixologiya fanida diqqatga har xil ta'rif beriladi, uni yoritishda psixologlar turli nazariyaga asoslanib yondashadilar. Diqqat deb ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obektga aktiv (faol) qaratilishi aytiladi (P. I. Ivanov). P. I. Ivanovning fikricha, biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimiz qilgan ishimiz, o'y va fikrlarimiz diqqatning obekti bo'la oladi [30; 534].

Demak, bola faoliyati jarayonida diqqat qilmay turib, biron-bir narsani anglashi, kimnidir yoki nimanidir yodda saqlab qolishi mumkin emas. Aynan tasavvurda diqqatning o'zni katta hisoblanadi. Masalan, bola tabiat hodisalarining ro'y berishini diqqat bilan kuzatmas ekan, unda mazkur hodisaning mohiyatini anglashda qeyinchilik yuz beradi.

Ma'lumki, agar tashqi olamning bosh miya katta yarim sharlari qobig'ida hosil bo'ladigan obrazlari, timsollari va ularning izlari yo'qolib ketaversa, tajribaning saqlanishi, bilimlarning boyishi, murakkablashishi, muayyan tartibga kelishi, qaytadan jonlanishi mutlaqo mumkin bo'lmas edi. Modomiki shunday ekan, mazkur obrazlar bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'lanib, asta-sekin mustahkamlanib, miya qobig'ida puxta saqlanib qoladi, shu bilan birga, hayot va faoliyatning muayyan talablariga muvofiq ravishda qaytadan jonlanadi, avvalgi holatini boshqatdan namoyon qiladi. Bu psixik jarayon xotira deb nomlanadi.

G'oziyev ta'rifiga ko'ra: xotira atrof-muhitdagi voqelik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va aktiv (faol) holda reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qaytadan esga tushirish, unutish

hamda tanish, eslashdan iborat ruhiy jarayon alohida va umumiy namoyon qiluvchi hodisa, barcha taassurotlarni ijodiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik (yunoncha *tpeta* — *xotira*) faoliyatdir [30;42].

Shunday qilib, bola tasavvuri ma'lum psixik jarayonlar natijasida shakllanib, rivojlanib boradi. Bola tasavvurini shakllanishida tafakkurning o'ri alohida hisoblanadi.

Psixolog olimlardan biri O. K. Tixomirov tafakkurga quyidagicha ta'rif beradi: "Tafakkur — bu o'z mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib, bivosita aks ettirishni xarakterlaydigan, umumlashtirish darajasi va foydalanadigan vositalariga hamda o'sha umumlashmalar yangiligiga bog'liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir" [30;42]

Ushbu ta'rifga ko'ra tafakkur jarayoni bu murakkab psixik jarayon hisoblanib, unda bola ko'rgan va eshitgan narsa va hodisalarni analiz va sintez qiladi, qismlarga ajratib, umumiy xulosaga keladi. Ma'lumki, tabiat va jamiyatdagi bilim va tajribalarni bolalar tomonidan o'zlashtirib olish analizdan boshlanar ekan. Sintez esa, shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, bolalar narsa va hodisalarning qismlarga bo'lingan, ajratilgan ayrim qismlarini, bo'laklarini sintez yordami bilan fikran yoki amaliy ravishda birlashtirib, butun holiga keltiradilar.

Inson tafakkurining oliy jarayoni esa nutq hisoblanadi. Tasavurni esa aslo nutqsiz tasavvur etib bo'lmaydi, hoh u og'zaki bo'lsin, hoh yozma. Inson ana shu nutqi orqali tabiatga va tevarak-atrofga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Aynan bolalar qorni qanday hosil bo'lishi-yu, uning xususiyatlarini nutqi orqali yoshi, psixik rivojlanishiga ko'ra ta'riflab beradi.

Shuningdek, bolalar tevarak-atrofga bo'lgan qiziqishini tili, nutqida ifoda qiladi.

Ta'kidlash lozimki, bola tasavvuri yuqoridagi psixik jarayonlar natijasida amalga oshirilgan ekan, ularni har qanday psixik zo'riqish, negativ holatlardan himoyalash lozim bo'ladi.

Demak, biz ham bolalarga tabiatni idroq qilishni, sezishni o'rgatishimiz va shu asosida tabiat haqidagi bilim, tushunchalarini boyitib borishimiz kerak. Zero,

bilimga ega shaxs tabiatni asray oladi, unga e'tiborli bo'ladi, uning go'zalligini his etadi. Ayniqsa, bu kabi ishlarni bolalarga kichik yoshligidanoq shakllantirish lozimki, bu bilan ulardagi tevarak-atrofnı bilishga bo'lgan qiziqish qondirib boriladi. Bizga ma'lumki, tevarak-atrof, tabiat hodisalariga qiziqish aynan maktabgacha yoshida juda yuqori bo'ladi. Bolalar ota-onalari, kattalarga turli savollar bera boshlaydilar. Olingan javoblar esa tasvurda gavdalantiriladi.

Bolalardagi tabiatga ijobiy munosabat ekologik-estetik tasavvurlarsiz bo'lishi mumkin emas, hissiyotlar tabiatning estetik-ekologik qadr-qimmatini anglash bilan kechadi. Bolalarning tabiatga estetik-ekologik tasavvurini shakllantirish ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Negaki, tabiatni qadrlay olgan shaxs jamiyat rivojiga, avlodlarning kelajagiga befarq bo'lmaydi. Tabiat boyliklarini asrab-avaylaydi, uni kelajak avlodlarga meros qilib qoldirish ishlarida faol ishtirok etadi. Insoniyat uchun tabiatning naqadar ahamiyatli ekanligi his etib, boshqalarni ham uni asrab-avaylashga, uning go'zalligidan bahramand bo'lishga chorlaydi.

Boladardagi tabiatga estetik-ekologik tasavvur uning qay darajada tarbiyalanganligi, hayotiy qarashlari bilan bog'liq bo'ladi. Bolalar dagi tabiatga estetik-ekologik tasavvur ularda quyidagi ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi:

- diqqatni jamlay olish, sezuvchanlik, kuzatuvchanlik, tabiatni idrok etish;
- tabiatni estetik-ekologik his qilish;
- mehr va shafqatlilik, rahmdillik;
- atrof-muhit, tabiat pokligini asrash hohish-istagi;
- tabiat pokligi va go'zalligi uchun mas'ullik va boshqalar;

Estetik-ekologik tasavvurga ega bo'lgan bola tabiat bilan, tabiatdagi o'zgarishlar bilan qiziqib yashaydi. Bola yangicha fikrlay boshlaydi. Tabiatga bunday yondashuv asosida uni asrash lozim ekanligini anglab etadi.

Tabiatning angab etilgan ijtimoiy qimmati – tabiatga munosabat me'yorlarini belgilash axloqiy munosabat, ijtimoiy ong shakli bo'lib chiqadi. Bolalarning tabiatga munosabati borasidagi axloqiy qarashlarida ijobiy siljishlar yuz beradi.

Bolalarning diqqati asta-sekinlik bilan tabiatda yuz berayotgan ekologik muammolarga qaratilar ekan, bunda bolalar tabiatga nisbatan vashiyona

munosabatda bo'lishning yomonligini, uning oqibatini, undan butun olam aziyat chekishi mumkinligini tushunib etadilar.

Markaziy Osiyoda, jumladan Respublikamizda tabiatni asrash, uning boyliklaridan tejab-tergab foydalanish borasida muhim qadamlar qo'yilgan: uni asrash to'g'risida qonunlar qabul qilingan. Tabiatdan foydalanish, tabiatning moddiy va ma'naviy zairalari ustidan nazorat ishlari o'rnatilgan, tabiat yodgorliklarini asrash jamiyatlari tuzilgan. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning salbiy oqibatlari (havo, suv, erning turli xildagi sanoat chiqindilari bilan zaarlanishi va .k.)ning oldi olinmoqda. Tabiat zairalaridan foydalanishga nisbatan iste'molchilik va xo'jasizlarcha munosabatda bo'lishga nisbatan qat'iy chora ko'rilmogda.

Demak, ekologik muammolar davlat ahamiyatiga molik bo'lgan birinchi darajali muammo sifatida ko'tarildi.

Biroq hozirga qadar tabiat boyliklariga, ularning o'zaro bog'liqliligiga, go'zalligiga, rang-barang olamning bebaho ne'matiga axloqiy munosabatda bo'lishga e'tibor etarlicha emas.

O'quv-tarbiya muassasalarida, umumta'limiy maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan va tarbiyalanayotgan yoshlarga tabiat estetikasiga oid bilimlar tizimi hanuzgacha etarlicha singdirilmayapti. Bu muammoning echimi ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarni hal etishni talab etadi. Jumladan, bolalar bilan tabiatni o'rganish bo'yicha maktabdan tashqari ishda ham joriy qilish zarur. Tabiatning hozirgi holati o'sib kelayotgan yosh avlodda tabiat estetikasi hissini shakllantirishdek muhim masala zudlik bilan hal qilishni taqozo etadi.

Buning uchun bolalarga muayyan bilimlar zarur. Ana shu bilimlar tizimini aniqlab, uni o'qitish metodikasini yaratish kerak.

Sayyora tabiatining kelajagi yoshlarning tabiatga nisbatan estetik tarbiyalanishiga bog'liq. Bunda hal qiluvchi rolni tabiat estetikasi o'ynashi muqarrar. Bolalarni tabiat go'zalligi, ekologiya go'zalligidan zavq olishga, tabiat

bilan do'stona munosabatda bo'lib yashashga o'rgatish o'ta muhim pedagogik muammo.

Agar tarbiya uchun tabiat estetik obyekt bo'lolmas ekan, zamin go'zalligining butunlay yo'qolib ketishi xavfi mavjud. Shuning uchun bolalarda tabiatga, uning estetikasiga qiziqishni shakllantirish favqulodda dolzarb muammo hisoblanadi.

Tabiat go'zalligini his qilish, unga qiziqish ezgulikka, muhabbatga chorlovchi teran insoniy fazilatdir, shu bois tabiat go'zalligiga qiziqishni shakllantirish bolalar shaxsiyatining ma'naviy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda bolalarning tabiatdagi ma'naviy-aloqiy xulqini belgilovchi, shuningdek tabiatni asrashga, uning go'zalligini boyitishga amaliy yordam beruvchi insoniylik, vatanparvarlik kabi tuyg'ular muhim ahamiyatga ega.

1.2. Yosh avlodda estetik-ekologik tasavvurni o'stirishning tarixiy ildizlari

Bolalarda tabiatni asrab-avaylash va uning go'zalligini his etishni shakllantirish barcha davrlarda muhim ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblangan.

Xalq pedagogikasi va yozma manbalar, tarix, tibbiyot, falsafaga oid ko'plab asarlarda tabiatni asrash haqidagi fikr mulohazalar o'z ifodasini topgan. Azaldan bolalar estetik-ekologik tasavvurlarini shakllantirish ishlari milliy qadriyatlar asosida amalga oshirilgan. Qadimgi ta'lim-tarbiya tizimida yosh avlodni tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash masalalari tarbiya yo'nalishlarining muhim tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Ota-bobolarimiz o'z farzandlariga oila davrasi va ko'cha-kuyda pand-u nasihat va turli suhbatlarda quyidagilarni alohida uqtirganlar: Nonni uvol qilma, chunki u aziz ne'mat, - Suvni iflos qilma, barcha jonivorlar ularni ichib, bahra oladi; - Gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirma, u meva beradi, uni o'zing iste'mol qilasan; - Tut daraxti barakadir.

O'zbek oilasidagi tarbiyaning o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, bolalar kichik yoshligidanoq kundalik uy-ro'zg'or, poliz, bog'dorchilik, chorvachilik ishlarini ota-onalari bilan birga bajaradilar. Bu jarayonda kattalar bolalarga tejamkorlikni, mehnatsevarlik va har bir ishni chiroyli qilib bajrinishni o'rgatib

keladi. Masalan, kattalar bolalar bilan gul yoki darxat eksalar, uni bir tekisda chiroyli qilib ekishni o'rgatadilar. Ekilgan daraxt va gullarga muntazam suv qo'yish, taglarini yumshatish keraklini uqtiradilar. Dastlab bolalar bu ishlarni kattalar yordamida, keyinchalik mustaqil bajara boshlaydilar. Bu ishlar bora-bora oila an'anasiga aylanib boradi. Keksa avlod vakillari yoshlarga gunoh bilan savob haqida pand-u nasihatlarini, ya'ni suvni harom qilmaslik, axlatlarni uy yoki hovliga to'kmaslik, daraxt va o'simliklarni behuda sindirmaslik haqida doimo ta'kidlab kelishgan. Bu esa bolalarga beriladigan estetik - ekologik va tabiat muhofazasi tarbiyasining asosiy namunalaridan biridir.

“Avesto”da, Qur’oni Karim va Hadisi shariflarda ham ushbu muammolarga alohida e’tibor berib kelingan.

Masalan, Zardo'shtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” [7;132] da yer, tuproq muqaddas sanalgan. Shu bilan birga daryolar, ko'llar bog'lar, tog'lar, o'simligu-giyohlar madh etilgan. Ona zaminni ulug'lash, suvni hayot manbai deb qadrlash, quyosh, olov va havoni e'zozlash “Avesto”dagi markaziy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Zardo'shtiylik ta'limotiga ko'ra, har bir kishi ruhan va xulqan komilligi uning yaxshilikka yuz tutib, rost yo'lni tanlab, dunyoviy bilimlarni o'rganib, o'z kasbini e'zozlagan holda Axuramazda farzlarini nechog'lik ado etishi bilan belgilanadi. Zero, qo'sh haydab, don ekkan, chorvani parvarishlab, cho'lda bog' yaratgan, yerning zaxini qochirib, sho'rini yuvib, ziroat ekkan zardo'shtiyning ravoni pok, xulqi xush, amali chin bo'lishi bilan ko'rsatilgan. Zardo'shtiylik ta'limoti bo'yicha, suv va havoni iflos qilish, suvga nopok narsalarni tashlash qat'iyan man etilgan. Anhor va ariq bo'ylarida mol boqish, otlarni bog'lashga ruxsat berilmagan. Suvga tupurish, supurgida suvga axlat supurish, toza qilib yuvilmagan idishlarda ariq va hovuzlardan suv olish, nopok holda suvga qarash ajdodlarimiz diniy e'tiqodlari bo'yicha odob-axloqqa xilof tarzda baholangan.

Tabiat muhofazasi masalasi zardo'shtiylik dinidan boshlab boshqa barcha dinlar kabi Islom dini tomonidan ham qadrlab kelingan. Islom ta'limotida hayvonot va nabobot olamiga katta e'tibor berilgan. Qur'on oyatlaridan birida

nabobot olami bandalar uchun rizqdir, undan esa o‘z rizqlarini asrab-avaylash hamda shukr keltirish lozimdir, deyilgan. Tabiatni e‘zozlash, atrof muhitni musaffo, kuraii-zaminni obod va go‘zal qilish singari ekologik tarbiya masalalari muborak hadislarda ham katta o‘rin tutadi. Xususan, “ekmoq niyatida qo‘lingizda ko‘chat turgan paytda, bexosdan qiyomat qoim bo‘lib qolishi aniq bo‘lganda ham, ulgursangiz uni ekib qo‘yaving”, “Hovli sahnini toza tutinglar”, “kimki daraxt o‘tkazsa yoki ekin eksa, uning mevasidan qush yoki hayvonlar yesa, uning har biridan sadaqa yoziladi”, “kishilarga soya beruvchi daraxtni kesgan kishi boshi bilan do‘zaxga tashlanadi”[11;550].

Dunyo xalqlari estetik-ekologik madaniyati taraqqiyotida Markaziy Osiyolik allomalarning “tabiat-inson” munosabatlari haqidagi fikrlari diqqatga sazovor. Xususan, Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al-Xorazmiy[28; 454], Abu Nasr Forobiy[16;237], Abu Rayhon Beruniy[28;464], Abu Ali ibn Sino[17;182] va boshqalar tabiiy fanlarning rivojlanishiga o‘lkan hissa qo‘shganlar. Ular hali ekologiya fani mavjud davrda tabiat, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni asrash haqida qimmatli ma‘lumotlarni qoldirganlar. Muhammad al-Xorazmiyning “Kitob surat al-arz” nomli asarida dunyo okeanlari quruqlikdagi qit‘alar, qutblar, ekvatorlar, gullar, tog‘lar, daryo va dengizlar, ko‘llar, o‘rmonlar va ulardagi o‘simlik, hayvonot dunyosi, shuningdek boshqa tabiiy resurslar, yerning asosiy boyliklari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Abu Nasr Forobiy [16;237] tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug‘ullangan bo‘lib, “Kitob al-hajm va al-miqdor”, “Kitob al-mabodi al-insonia”(“Insoniyatning boshlanishi haqida kitobi”) nomli asarlari bunga dalil bo‘la oladi. Shuningdek, o‘zining “Inson al-ulum va al-ta‘rif” asarida zamonasidagi ilmlarni har tomonlama o‘rganib, ularni ma‘lum tizimga solib, turkumlarga ajratdi, har bir ilm tarmog‘iga e‘tibor bergan.

Forobiy tabiiy va inson qo‘li bilan yaratiladigan sun‘iy narsalarni ajratgan. U tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilgan, degan xulosaga kelgan. Inson omilining tabiatga ta‘siri katta ekanligini, tabiiy va sun‘iy tanlanish hamda tabiatga ko‘rsatiladigan boshqa ta‘sirlarni atroflicha baholagan.

Abu Ali ibn Sinoning [17;182] aytishicha, insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy amaliyotiga asoslangan quyidagi fikri diqqatga sazovor: “Suvlarning eng yaxshisi buloq suvidir. Lekin, hamma buloqning emas, balki yeri toza va tuprog‘ida bironta chet xususiyat va kayfiyat bo‘lmagan buloqning suvidir; yoki (suv oqadigan joy) toshli bo‘lishi kerak, chunki, bu balchiqqa o‘xshab sasimaydi, ammo, toza tuproqli yer, toshli yerdan yaxshiroq, hamma toza tuproqli buloqning suvi yaxshi bo‘lavermaydi; u suv yana oqar suv bo‘lishi kerak, oqqanda ham quyosh va shamol uchun ochiq joyda oqishi kerak, chunki, bular oqar suvga fazilat beradigan narsalardandir”. “Yomg‘ir suvi ham yaxshi suvlar jumlasiga kiradi, xususan, yozda momoqaldiroqli bulutlardan yoqqan bo‘lsa... Yomg‘ir suvi eng yaxshi suv hisoblansa ham bu suv tez sasiydi, chunki, juda suyuq bo‘lib, yer va havoning buzilishi tez ta’sir qiladi”.

Muhammad al-Xorazmiy [28;464] tomonidan 847 yilda yaratilgan “Kitob surat il-ard” (“Yerning surati”) asarida yer sharining quruqlik va suvli hududlari, qit‘alar, okeanlar, o‘rmonlar, o‘simliklar, hayvonot dunyosi, shuningdek, ko‘pgina tabiiy zahiralari, mamlakatlar va u yerdagi xalqlari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Asarda bir necha izohlar, xaritalar mavjud bo‘lib, Orol dengizining tasviri ham berilgan. Asarda bundan tashqari 637 ta muhim joylar, 209 ta tog‘ning geografik tafsilotlari o‘z aksini topgan. Olim tomonidan daryo suvlari qurib, ifloslanib, inson boshiga turli falokatlar yog‘ishi mumkinligi ta’kidlangan.

Yosh avlodga Muhammad al-Xorazmiyning yer maydonini hisobga olish muammolari, ularni yechish yo‘llari hamda yerdan unumli foydalanish borasidagi qarashlari haqida ma’lumotlarni berib borish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, tabiatshunoslik mashgu‘lotlarida alloma asarlarida shaharlar, tog‘lar, dengizlar, orollar va daryolardan iborat 2402 ta [28;464] geografik obektlarning nomlari qayd etilganligini aytib o‘tish lozim. Ekologik bilimlar rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan allomalardan yana biri Abu Rayhon Beruniy hisoblanadi. Mutafakkir tomonidan 152 ta asar yaratilgan bo‘lib, ularda tabiiy muhitdagi dialektik rivojlanishning ilmiy asoslari yoritilgan [28; 464].

Ekologik bilimlar rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan allomalardan yana biri Abu Rayhon Beruniy hisoblanadi. Mutafakkir tomonidan 152 ta asar yaratilgan bo'lib, ularda tabiiy muhitdagi dialektik rivojlanishning ilmiy asoslari yoritilgan [28;464].

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va “Hindiston” asarlari Abu Rayhon Beruniyning jahonga mashhur asarlari sanaladi. Ularda yosh avlod uchun o'ta muhim bo'lgan o'simlik va hayvonlarning tuzilishi, ularning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasi haqida qiziqarli ma'lumotlarni keltirgan. Shuningdek, mutafakkirning asarlarida turli tropik o'simliklar va hayvonlar to'g'risida ma'lumotlarning keltirilishi nabo'at va hayvonot olamining tashqi muhit bilan aloqasini, yil fasllari almashinuvining o'simlik va hayvonot olamiga ta'sirini yoritishga xizmat qilgan. Chunonchi, “Qushlarning tog'lardan pastga, tekisliklarga tushishi, chumolilarning o'z inlariga berkinib olishlari havoning sovishidan dalolat beradi”, - deydi olim [28;464].

Abu Ali ibn Sino [17;182] “Tib qonunlari”da to'rt unsur ya'ni yer, suv, havo va olovga alohida to'xtalib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini, mohiyatini yirik tabiatshunos alloma, buyuk mutafakkir sifatida ilmiy-falsafiy jihatdan yoritadi. Xususan, Yer oddiy jism bo'lib, uning tabiiy o'rni hamma jismlarning o'rtasidadir. U o'z tabiati bilan o'sha o'rnida turadi, agar o'z o'rnidan ajralsa, ana o'shanga tomon harakat qiladi. Bu — Yerning mutloq og'irligidir. Yerning tabiati sovuq va quruqdir, ya'ni uning tabiati shundayki, o'z holiga qo'yilsa, chetdan biror sabab uni o'zgartirmasa, uningtabiatidan sovuqlik va quruqlik paydo bo'ladi. Yerning olamda mavjudligi barqarorlikka, shakl va tuzilishining saqlanishiga yordamlashadi, degan ekologik g'oyani ilgari surgan.

Tashqi muhitning kishi organizmiga ko'rsatadigan ta'siri, inson salomatligini saqlash, parhez, shaxsiy gigiyena to'g'risidagi masalalar esa alloma tomonidan yaratilgan “Tib qonunlari” asarining bosh g'oyalari sanaladi. Allomaning inson tanasida kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillardan biri suv, yer va havoda mo'tadillikning buzilishi bilan bog'liqligi, yashash joylarining

torligi, ozoda bo'lmasligi, yuqumli (moxov, chechak, vabo isitmasi, yiring, toshma kabi) kasalliklarning tez tarqalishi uchun qulay sharoit yaratishi, yuqumli kasalliklarning aholi zich joylashgan joylarda havo va boshqa omillar orqali yuqishiga doir o'g'itlari bugungi kunda ham muhim ijtimoiy-tibbiy ahamiyatga egadir [62; 116].

Imom Ismoil al-Buxoriyning [11;550] "Al-jome' as-sahix" kitobi boshlang'ich sinf o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Asar to'la ma'noda insonga xos ijobiy sifatlar - halollik, poklik, rostgo'ylik singari fazilatlar, insonda ularni shakllantirish masalalarini yoritgan bo'lib, unda ilgari surilgan g'oyalar insonni ezgulikka, savob ishlarni amalga oshirishga, o'zidan yaxshi nom qoldirishga undaydi. Shuningdek, axloqiy tarbiya masalalari bilan birga insonning kundalik faoliyatida yetakchi o'rin tutuvchi ekologik holatlar, ya'ni uning iste'molchi sifatidagi tabiat bilan munosabati mazmuni, shartlari borasidagi qarashlar asar mazmunidan o'rin olgan.

Allomaning "Al-adab al-mufrad" ("Adab durdonalari") asarida inson ekologiyasiga oid masalalari ham batafsil tahlil etilgan. Jumladan, asarda "Farzand, bir tog' ikkinchi tog'ga zulm qilsa, bu zulm qiluvchi tog' albatta maydamayda qilib yuboriladi. YA'ni, zulm shunday yomon hulqki, u aslo kechirilmaydi. Bu insonlar va hayvonlar uchungina emas, hatto tog' kabi jamodot (jonsiz jism)lar bir-biriga hujum qilsa, albatta o'chini olib beriladi" [10; 199]; "Qaysi bir musulmon biror daraxt yoxud biror ekin eksa-yu, uning hosilidan inson, qush yoki hayvon yesa, buning uchun unga ajru savob ato etilur" [10; 199], - deya ta'kidlanadi.

Estetika taraqqiyoti Amir Temur [14;64] nomi bilan chambarchas bog'liq. Amir Temur (1336-1405) nafaqat ulug' sarkarda, atoqli davlat arbobi, balki dinshunos, nozikta'b qonunshunos sifatida dunyo ahliga tanilgan. Temur va temuriylar davrida mo'g'ul bosqini tufayli butunlay vayron etilgan Samarqand shahri qayta qurildi. Shahar tevaragi Shayxzoda, Chorsu, Korizgo, So'zangaron va Feruza atalmish oltita darvozali qal'a devori bilan o'rab chiqilgan. Ko'rkam va muhtasham binolardan tashqari, turli tuman kasbdagi hunarmandlar mahallalari

qad ko'targan. Ispan elchisi Klavixoning yozishicha, Amir Temur xunarli biror kishini ham Movarounnarni tashlab ketishiga yo'l qo'ymagan. Aksincha, soibqiron farmoni bilan Damashqning mohir tbo'lalari, Anqaraning movut to'quvchi korxonalari, Turkiya va Gurjistonning zargarlari Samarqandga ko'chirib olib kelingan. U Samarqand atrofida o'z farzandlariga atab ko'shklar, go'zal bog'lar qurdirdi. Mohir me'mor, tajribali soibkorlar aql-zakovati, mehnati, mahorati bilan barpo etilgan Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Baland, Bog'i Shamol kabi chorbog'lar va ulardagi go'zal ko'shklar o'sha davr sayilgoh-bo'stonchilik, bog'dorchilik san'atining namunalaridir. Qisqa fursatda Samarqand o'z miqyosi, go'zalligi bilan o'sha davrdagi barcha shaharlardan o'zib ketdi. Temuriy shahzodalar Shohruh, Ulug'bek, Boysungur, Husayn Boyqaro ham Samarqandni go'zal va farovon etishda ota- bobolari izidan bordilar. Amir Temur o'z nevaralarining tarbiyasi va ma'lumot olishiga katta ahamiyat berdi. O'z zamonasining orif kishilari ularga fan asoslaridan, she'riyat, musiqa, xattotlik, san'at, arab, fors, turk tillaridan chuqur ta'lim berdilar. Tarix, adabiyot, san'atga qiziqish ruhida tarbiyalangan temuriy shahzodalar bir-birlari bilan ma'naviy aloqada bo'ldilar. Bu aloqalar XV asr estetikasini rivojiga katta hissa qo'shdi.

Tarixiy ekologik g'oyalar mumtoz badiiy asarlarda ham aks etgan. Ularda inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar masalasiga keng o'rin ajratilgan. Buyuk o'zbek allomasi Alisher Navoiyning "Xamsa" asariga kiritilgan "Sabbai sayyor" dostonidagi yetakchi mavzu va g'oyalardan biri insonning tabiatga munosabati masalasi, bosh qahramon shoh Bahromning ovga bo'lgan ishqibozligi orqali ochib beriladi. Jumladan, Bahrom o'z lashkari bilan sonsiz hayvonlarni qirg'in qiladi. Tabiat esa, bu adolatsizligi uchun undan ayovsiz o'ch oladi. Kuchli zilzila oqibatida shoh Bahrom, yori Dilorom va uning lashkarlarini yer yutadi. Asarda ushbu voqeani ifoda etar ekan, Navoiy odamlarni tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishga, uning boyliklaridan o'rinli foydalanishga undaydi.

Ushbu tahlillarga nazar tashlasak, ota-bobolarimiz, ayniqsa, buyuk allomalarimiz diqqat markazida ona tabiatni asrab-avaylash, unga ozor bermaslik, uning go'zalliklaridan bahramand bo'lish kabilar aks etgan.

II BOB. BOLALARDA ESTETIK-EKOLOGIK TASAVVURNI O‘STIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

2.1. Bolalar estetik-ekologik tasavvurini o‘stirishning mazmuni va shakllari

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturida bolalarning bilish kompetensiyasiga quyidagicha talab qo‘yilgan – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Demak, atrofdagi olamni ongli ravishda hissiy idrok qilish, tabiatga ongli munosabat, uning go‘zallidan zavqlanish bolalarning bilish kompetensiyasiga kiradi. Shu bilan birga bolalar faoliyatlari jarayonida faqtgina bilish bilan chegaranmasliklari, balki uni amaliy vazifalarni hal etishda foydalanishlari lozim bo‘ladi. Bolalar estetik-ekologik tasavvurlarini shakllantirishdan iborat yaxlit tizim doirasida ta’lim jarayonining asosiy maqsadi estetik-ekologik madaniyatni shakllantirish uchun talab etiladigan optimal pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, bolalarga amaliy xarakterdagi estetik-ekologik bilimlarni berish, ularda: ekotizmlar to‘g‘risidagi tasavvurlarni rivojlantirish, tabiat go‘zalligini his etishga o‘rgatish, ekologik faoliyatlari (o‘yin, mehnat, bilim)ni tashkil etishning dastlabki ko‘nikmalarini hosil qilishdir.

MTM tarbiyalanuvchilariga ekologik bilimlarni berishda quyidagilar hal etilishi lozim:

1. Bolalari ongiga atrof muhit: tabiat, hayvonot va o‘simliklar olami haqidagi ularning yoshiga mos elementar bilim va tushunchalarni shakllantirish.
2. Bolalarda hayvonlarni parvarish qilish va ularga g‘amxo‘rlik hissini uyg‘otish.
3. MTM tarbiyalanuvchilarida xilma-xil o‘simliklar dunyosini bilishga qiziqishni shakllantirish.

4. Bolalarda tabiat zairalarini asrash, tejashga, yo'nalshtirilgan ma'sullikni kuchaytirish.

5. Bolalarga er va suvni ifloslantirmaslik, ulardan oqilona foydalanish, atmosfera havosining ifloslanishini oldini olish borasidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

6. Har bir bolada yashab turgan joyida paydo bo'lgan ekologik vaziyatni to'g'ri baholay olish ko'nikmasini shakllantirish.

7. Bolalarni ekotizimga zarar etkazayotgan har qanday xafli holatlarga qarshi kurasha olish ruhida tarbiyalash.

8. Bolalarning ekologik faoliyat uyini, bilim, mehnatlarini tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini amaliy jihatdan ta'minlash.

9. Bolalarda tabiat go'zalligini his etish ko'nikmasini shakllantirish.

Bu vazifalarni hal etishda quyidagi didaktik shartlarga amal qilish kerak bo'ladi:

1. Bolalarda atrof muhitga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'la olish ko'nikmalarini qaror toptirish borasida aniq maqsadni aniqlab olish.

2. Bolalar bilishlari zarur bo'lgan ekologik ta'limning uzluksiz va uzviyligini ilmiy-amaliy jihatdan ta'minlash.

3. Mashg'ulotlarda bolalarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlarini hisobga olgan holda estetik-ekologik ma'naviyatini shakllantirish.

4. Bolalarga berilgan go'zallik va ekologik mavzularga oid ta'lim-tarbiya natijalarini, muntazam tekshirib va kuzatib borish, xatolarni tuzatish va бoшқaлaп.

Estetik -ekologik ta'lim-tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagilar asos qilib olinadi:

1. Estetiyek-ekologik ta'limning ilmiyligi - inson, tabiat va jamiyatning o'zaro uzluksiz va uzviyligini bog'lovchi ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy va texnikaviy qonuniyatlar, nazariya va tushunchalarning mohiyatini anglash.

2. Estetik-ekologik qadriyatlar - bolalar tomonidan tabiatning har tomonlama qadr-qimmatga ega bo'lgan ahamiyatini anglab olishga erishish. O'mish

va hozirgi avlodlarning ekologik qarashlari, urf odatlarini bilish va ularga amal qilish. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish.

3. Ekologik bilimni me'yoriyligi - ekologik xarakterdagi materiallarning ma'naviy va ahloqiy tamoyillari, me'yor va qoidalar, yo'l-yo'riq va tadqiqotlar tizimining mazmunini ilmiy-amaliy jihatdan yaxshi bilish.

4. Ekologik faoliyat - ekologik mazmundagi o'yin, mehnat, aqliy va amaliy xarakterdagi ko'nikma va malakalardan iborat bo'lib, ekologik sohasidagi oqibat bog'lanishlarini ko'ra olish, ekologik muvozanatni saqlash borasida qarorlar qabul qilish:

5. Atrof muhitni o'rganish va uni muhofaza qilishga amaliy hissa qo'shish, ekologik g'oyalarni ilmiy-amaliy jihatdan bilib, uni targ'ib qilish.

Bular maktabgacha yoshida o'ziga xos tarzda bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilib borilishi lozim.

Ekologik ta'limning ilmiylik jhati bolalarga jonli va jonsiz tabiat orasidagi o'zaro bog'liqliklarni ko'rsatish, bog'liqlik mohiyatini tushuntirish, jonli tabiatni yashovchanligi, moslashuvchanligi, hamda faoliyat samarasining tabiiy shart-sharoitlariga bog'liqligini ko'rsatish yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi.

Ekologik ta'limning qadriyatlar jhati, tabiat, atrof muhit ob'ektlarining inson hayotidagi har tomonlama ahamiyatini ochib berish yo'li bilan atrof muhitni muhofaza qilish zarurligini asolash asosida ko'zga tashlanadi.

Ekologik ta'lim mazmunining me'yoriylik jhati tabiatga munosabat borasidagi kishilar xulq-atvorlari mohiyatini aks ettirish orqali bolalarni atrof muhitda yurish-turish qoidalari bilan tanishtirishga xizmat qiladi.

Ekologik ta'lim mazmunining faoliyat jhati nafaqat muayyan bilim, qadriyat, me'yor va qoidalar mazmunini o'zlashtirishni balki o'simlik va hayvonlarga amaliy yordam ko'rsatish, ularni parvarishlash, ko'paytirish hamda tabiiy zahiralarni tiklash va ko'paytirishni ham nazarda tutadi.

Bolalarda tabiat estetikasiga qiziqishni shakllantirishning ta'lim shakllari: mashg'ulot, sayr, turli tadbirlar hisoblanadi.

Bolalarda tabiat estetikasiga qiziqishni shakllantirishning qulay bo'lgan mashg'ulot turlari: aqliy hujum, shavol-jhavob, hikoya, amaliy-tajriba mashg'ulotlari; atrof muhitni kuzatish va o'rganish yuzasidan tajribalar o'tkazish, muammoli, rolli o'yin, sayohat, zanjir kabilar bo'lishi mumkin.

Bolalarda tabiatga qiziqishni shakllantirishda quyidagi metodlardan foydalaniladi: pedagogik kuzatuv, suhbat, test, o'quv manbalari (o'quv dasturlari, dasrlik hamda qo'llanma va yordamchi materiallar) bilan ishlash, ko'rsatmallik, mashq qildirish, amaliy mashg'ulotlar (didaktik, yozma ish, insho, referatlar tayyorlash), kompyuter o'yinlari va boshqa)lar.

Bolalarning “Atrofimizdagi olam bilan tanishtirish”, “Tabiat bilan tanishtirish” mashg'ulotlarini zamon talablariga javob beradigan holda tashkil etishda “Sahnalashtirilgan”, “O'yin – musobaqa”, “Sayohat” mashg'ulotlaridan foydalanish samarali natija beradi. Zamonaviy mashg'ulot o'tish usullarining o'ziga xos xususiyatlari: mavzuni muhokama qilish; erkin fikrlash; hamkorlikda ishlash; juft bo'lib guruhlarda ishlash; davra suhbatlari, rollarni ijro etish; muammolarni birgalikda hal etish uchun fikrlash. Zamonaviy usullar bolalarning o'z fikrini himoya qilish ko'nikmasini shakllantiradi, hamkorlikda ishlashni o'rgatib, ularni hayotda uchrab turadigan qiyinchiliklarni birgalikda yengish tajribasini singdiradi. Zamonaviy usullardan foydalanish: guruh muhitini o'zgartiradi; mavzu qanday bolalarning o'rganilishi kerakligini belgilab beradi; har bir bolani faollashtiradi. Bugungi kunda bolalarni mustqil va faol ishlashga o'rgatish zamon talabidir. Bu jarayonda tarbiyachining pedagogik mahorati, uning chuqur bilimi, insoniy odob-axloqi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda zamonaviy usullardan foydalanib mashg'ulot o'tishda tarbiyachi mohirlikdan ijodkorlikka intilishi va bu bilan maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga hissa qo'shmog'i talab etiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda noan'anaviy mashg'ulot usullaridan foydalanish orqali iqtidorli bolalarni aniqlash va boshqa bolalarda o'z kuchlari va imkoniyatlariga ishonch hosil qilishlari uchun imkon yaratish, guruhdagi bolalar o'rtasida do'stlik, o'zaro hamkorlik tuyg'ularini shakllantirishga erishish nazarda tutiladi. Pedagogik texnologiya ma'lumotlarni

o'zlashtirish uchun qulay shakl va usullardir. Demak, pedagogik texnologiya insonga odindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat. Shu jarayonda muammoli ta'lim berishning ham ahamiyati katta. Muammoli o'qitishning asosi – bolalar bilish faolligini o'stirishdir. Muammoli o'qitishni o'z ichiga olgan mashg'ulot va sayrlarda bolalarga yangi ma'lumotlarni o'zida saqlagan masalalarni hal qilish taklif qilinadi, toki, ular bilimlarni o'zlashtirish va ularni amalda mustaqil qo'llanish usullarini egallab olsinlar. Muammoli mashg'ulot quyidagi bosqichlarga bo'linadi: muammoli vaziyat yaratish; muammoli ifodalash; muammo yechimini izlash; yechimning to'g'riligini tekshirish. Mashg'ulot shunday tarzda tuzilishi kerakki, unda qo'yilgan muammoga bolalarda qiziqish uyg'onsin, bilim olish tizimidagi ahamiyati ko'rsatilsin, yangi bilimlar olishga ehtiyoj tug'ilsin. Mashg'ulotlarda amaliy ishlardan, qiziqarli topshiriqlardan foydalanish muammosi o'ta dolzarbdir. Hozirgi paytda bolalarning bilim olish faoliyatini jadallashtirish va ularning atrofolar va ekologik bilimlar bilan tanishtirish mashg'ulotlarida olgan bilimlarini tekshirish maqsadida har bir bolaning mashg'ulotlar jarayonida mustaqilligini ta'minlovchi va sahna mashg'ulotlari qo'llanilmoqda.

Shu bilan birga, bolalarining dunyoqarashini shakllantirish tizimida ularning estetik va ekologik qarashlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Tabiat estetikasi va uni asrab-avaylashga qiziqishni shakllantirishda MTMda "Atrofimizdagi olam bilan tanishtirish", "Tabiat bilan tanishtirish" mashg'ulotlari o'ziga xos imkoniyatlariga ko'ra etakchilik qiladi. Yuqoridagi boblarda ta'kidlagimizdek, XX asrning so'nggi yillari XXI asr boshlarida ekologik muammolar global muammolardan biriga aylanirb o'lgurdi. Ekologik muvozanatni hal etish yo'llaridan biri aholi, xususan, bolalar o'rtasida ekologik bilimlarni targ'ib etish, ularda tabiatga nisbatan onglilik hamda ijobiy munosabatni qaror toptirish hisoblanadi. Bu pedagogik muammoni hal etishda sayrt va turli mashg'ulotlarning ichki imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bolarning estetik-ekologik tasavvurlarini shakllantirish ularning sust kuzatuvchi holatidan faol ishtirokchiga aylantirishni ko'zda tutmog'i lozim. Ana shundagina bolaning


ijtimoiy-pedagogik hamda tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga oid ko'nikmalar sinovdan o'tadi, rivojlanadi, tuzatish kiritiladi, takomillashtiriladi hamda mustahkamlanadi.

Tabiatdagi mavjud tabiiy manbalar asosida bolalarning estetik-ekologik muhitga munosabati borasidagi tasavvurlari asosida ularga ekologik bilimlarni berishda samaradorlikka erishish ijtimoiy-pedagogik zaruratdir. Bunday obyektiv zaruriyat negizida maktabgacha yoshidagi bolalarga MTMda olib boriladigan mashg'ulotlar va sayrlarda berilayotgan estetik-ekologik bilim, ko'nikma va malakalar yotadi. Bolalarga dastlabki tabiatga oid ilmiy-nazariy va amaliy tushunchalarni berishda maktabgacha ta'lim tizimi muhim bosqich hisoblanadi.

Keyingi asosiy va muhim pedagogik hamda psixologik vazifa esa yuqorida aytilgan estetik-ekologik tushuncha va bilimlarni bolalarga yetkazib berishning samarali shakl, metod va vositalarini aniqlash sanaladi. Bu o'rinda bolalarda estetik-ekologik tasavvurlarni shakllantirish va tarbiyalashga oid "Estetik-ekologik daqiqa" deb nomlangan tushuncha va bilimlarni berish shakli va usulidan foydalanish taklifini ilgari surgan holda, uning samarali ekanligini alohida qayd etib o'tish mumkin.

"Estetik-ekologik daqiqa" mashg'ulot shaklida bolalarga mahalliy, mintaqaviy, global darajadagi ekologik ijobiy yoki salbiy holatlarni tasvirlovchi kichik multi filmlar qo'yib berishdan foydalanish ham pedagogik, ham psixologik jihatdan muhim va samarali hisoblanadi.

2.1.1-pacm



Bunda qisqa vaqt (5-6 minut) ichida juda katta hajmdagi axborotlarni berish mumkin bo‘lib, bolalar toliqishlarining oldi olinadi.

Ayniqsa, estetik-ekologik daqiqalarda syujetli rasmlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Syujetli rasmlarda tabiat tasvirining ifodalanishi bolalarda tabiatdagi hodisalarlarning ketma-ket sodir bo‘lishi, bolalar salomatligini asrashda nimalarga e‘tibor berish lozimligi kabilar ifodalanadi. Bolalar rasmlarga qarab tabiatdagi hodisalariga nisbatan tasavvurlari kengayadi. Masalan, ushbu rasm (1-rasm) dan foydalanib, bolalarda tabiatni asrab-avaylash, o‘simliklarni qanday qilib parvarish qilish tasvirlangan.



(1-rasm)

Bunday rasmlarga qarab bolalar o‘simliklarni parvarish qilishni va parvarish natijasida ularning o‘sishi, rivojlanishi va hosilga kirishini bilib oladilar. Bunda bolalar nafaqat o‘simliklar. Balki kishilar mehnati natijasida tabiatning gullab-yashnashini o‘rganib oladilar.



Ushbu rasmda (2-rasm) da ham qizaloqning gul ko‘chatini ekishdan tortib, uni parvarish qilishi, natijada gulning ochilishi va ochilgan gulni onasiga sovg‘a qilishi tasvirlangan. Rasm ma‘lum syujetga ega. Shu bilan birga bolalar bu rasm orqali o‘simliklarni o‘sishi va rivojlanishi uchun ma‘lum vaqt kerakligini ham tushunib oladilar. 2-rasm



Bu rasmda (3-rasm) qizaloqning qushlarga bo‘lgan ijobiy munosabati aks etgan. Bu rasm ham ma’lum syujetga ega. Unda qo‘shlar galasida yarador bo‘lgan qushning qizaloq tomonidan topib olinishi, parvarish qilinishi va yana uchirib yuborilishi tasvirlangan.

3-pacm



4-rasm

Ushbu rasm ham syujetli rasm (4-rasm) hisoblanadi. Unda bolakayning daraxtdagi olmalarni terib olishi va savatlarga joylashi va tipratikonning olmalarni olib ketishi tasvirlangan.



4-rasm

Demak, bu kabi syujetli rasmlardan bolalar estetik-ekologik tasavvurlarini shakllantirish ahamiyatli hisoblanadi. Negaki bolalar ma'lum syujet asosida tabiatdagi hodisalarning o'zgarishi, ularni asrab-avaylash lozimligi, uning go'lligidan bahramand bo'lishni kerakligini his etadilar. Ayniqsa, bolalar estetik-ekologik tasavvurlarini shakllantirishda rasmlarning ahamiyati katta. Chunki, rasmlar bu jarayonda ko'rgazmalilik vazifasini bajaradi. Shu bilan birga bolalarning ayrim mashg'ulotlar jarayonida hosil bo'lgan toliqish holatlarining oldi olinadi.

2.2. Ekskursiyalar – maktabgacha yoshidagi bolalar estetik-ekologik tasavvurlarini shakllantirish vositasi sifaida

Maktabgacha ta'lim massasasida tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlarning barchasi ham bolalarda barkamollik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ular bir-biridan mazmun-mohiyati, vazifasiga ko'ra farqlanadi. Huddi shunday ekskursiyalarning vazifasi ham ko'p qirralidir. Ekskursiyalar – tarbiyaviy ishlarning ommaviy turi sifatida keng qo'llanilib kelinadigan usuldir. Ayniqsa, bunda bolalarni tabiat qo'yniga olib chiqiladigan ekskursiyalarning ahamiyati

katta. Sayohat davomida bolalarning bevosita tabiat haqidagi bilimlari, tushunchalari kegayadi. Bolalar kuzatish jarayonida tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar va tabiat hodisalarini, o'simliklar va hayvonot dunyosini, kishilar mehnatini qadrlashni o'rganadilar. Shu bilan birga kuzatish jarayonida bolalarda vatanga nisbatan e'tiqod, ona-tabiatni asrash, tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lish, tarixiy obidalarni o'rganishga qiziqish ko'nikmalari shakllanadi. Ekskursiyalar kunining e'lon qilinishiyoq bolalarda xursandlik kayfiyatini uyg'otadi. Chunki, ekskursiyalar uyushtirish orqali bolalarda mashg'ulotlar jarayonida hosil bo'lgan zerikish, toliqish alomatlari bartaraf etiladi. Bu yoshda bolalarning tabiat va tevarak – atrofni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ustun bo'ladi. Ularning bu ehtiyoj va qiziqishlari ekskursiyalar yordamida qondirib boriladi.

Ekskursiyalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin: yon atrof bilan tanishuv, o'lkashunoslik manbalariga sayohat, muzey, tarixiy joylarga borish, kishilar mehnatini kuzatish va boshqalar. Dastlab bolalar yon atrof bilan tanishtirish ya'ni bog'cha hovlisi, oshxona, musiqa zali va boshqalar bilan tanishtiruv amalga oshiriladi. Tarbiyachi-pedagoglar ekskursiya paytida bolalarni tartib-intizomga, o'zini tutish qoidalariga o'rgatadi, safda yurish, oshxona va guruh xonasini ozoda tutish kabi ko'nikmalarni shakllantib boradi. Asta-sekin ekskursiyalarning ko'lami kengayib boradi. Bu jarayonda asosiy rolni tarbiyachi bajaradi. Chunki tarbiyachi ushbu ekskursiyalar natijasida bolalarda vatanga e'tiqod tuyg'usini shakllantira olishi, milliy qadriyatlarimizning mazmun, mohiyati haqida tushuncha berishi kerak bo'ladi. Buning uchun pedagoglarning zimmasidagi vazifalar quyidagilardan iborat ekanligini e'tirof etamiz:

- tarbiyachi-pedagog o'zi yashab turgan voha, shahar, qishloq haqida to'liq bilimlarga ega bo'lishi;
- tarbiyachi-pedagog rahbarlikni qo'lga olgan holda, bolalar diqqatini kuzatilayotgan obyektga qarata olishi;
- ekskursiyaning maqsadi, rejasini ishlab chiqishi;

-ekskursiya davomida bolalarni milliy qadriyatlarga hurmatni, gʻurur va iftixor tuygʻularini tarbiyalab borishi;

- uyushtirilayotgan ekskursiya orqali Vatanga muhabbat, sadoqat, onavatanni asrash, vatanga eʼtiqodni tarbiyalab borish koʻzda tutiladi.

Shu bilan birgalikda tashkil etilayotgan ekskursiyaning muddati oldindan belgilab qoʻyilishi hamda bundan ota-onalar xabardor boʻlishi lozim. Ekskursiyalar uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorgarlik koʻrish;
2. Ekskursiyani oʻtkazish;
3. Taassurotlarni xulosalash, yakunlash.

Ekskursiyalarni tashkil etishning barcha qonun-qoidalariga amal qilgan holda bolalarning oʻzlari yashab turgan joylardagi oʻlkashunoslik manbalariga sayohatni uyushtirish mumkin. Masalan, “Ona tabiatni sevamiz” mavzusiga bagʻishlab sayohat uyushtirish maqsadga muvofiq. Bunda avvalo sayohatning maqsadi belgilab olinadi.

Sayohatning maqsadi: Tabiatdagi oʻzgarishlar, fasllar almashinuvi, ob-havo, oʻsimlik va hayvonot dunyosi, kishilar mehnati, tabiatdagi goʻzal manzaralarning chiroy ochib turishini bolalarga koʻrsatish va bundan bolalarda oʻz tabiatga nisbatan mehr-muhabbatni hissini tarbiyalashda unumli foydalanish.

Bu kabi sayohatlar qisqa vaqt davom etsa-da, bolalar undan katta zavq oladilar. Bolalarning tabiat hodisalariga nisbatan qiqizqishlari yanada ortadi. Bahor faslida dov-daraxtlarning gullashi, yam-yashil tusga kirishi, qishda esa butunlay boshqacha manzara hosil boʻlishi, yaʼni tabiatning oppoq tusga kirishi yanada bolalar hayratini oshiradi. Sayohatlar jarayonida gul va hayvonlarni tarbiyachi tomonidan tilga kirishi bolalarda tabiatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Sayohat davomida bolalar bogʻbon mehnati bilan ham tanishadilar va bu bilan ular kattalar mehnatini qadrlashga oʻrganib boradilar.

Sayohat tassurotlari tarbiyachi-pedagoglar tomonidan xulosalanadi. Xulosalash yakunida tarbiyachi ona tabiatning inson hayotidagi ahamiyatiga yana bir toʻxtaladi. Ayniqsa, bolalarda vatanparvarlikni tarbiyalashga alohida eʼtibor

beradi. Ekskursiyada faol bo'lgan, jamoat joylarida o'zlarini yaxshi tutgan bolalar rag'batlantiriladi.

Quyida tajriba guruhlarida olib borilgan sayohatlardan ayrim namunalar keltiramiz. Chunonchi, Qarshi shahridagi 17-MTM tarbiyachisi Mahmatqobilova Shohista "Gullar suhbatini" mavzusidagi sayohatni quyidagi tartibda o'tkazdi. **Sayohatning maqsadi:** Bolalarni gullarning nomi, qaerlarda o'sishi, ularni qanday parvarish qilish lozimligi haqidagi ma'lumotlarni kengaytirish asosida bolalarning ona-tabiatga mehr-muhabbatlarini uyg'otish va oshirish, atrofimizdagi mevali va manzarali daraxtlarni asrashga o'rgatish.

Sayohat bog'cha hovlisida o'tkazildi. Tarbiyachi sayohatni quyidagi tartibda boshladi:

- Bolalar! Sizlar gullarning suhbatini eshitganmisiz?

Bugungi sayohatimizda gullar sizga ko'p narsani hikoya qiladi. Men bir kuni bog'chaga barvaqt keldim. Yo'lakka kirayapman-u kimningdir ovozi eshitdim. Qarasam, rayxonning yum-yum yig'lab, o'z ahvolini menga shunday so'zlab berdi.

- Opajon, menga qaramaysiz ham. Kecha bolalar mening shohlarimni sindirib, barglarimni uzdilar, tanamga ko'p ozor etkazdilar.

- Qarasam, darhaqiqat, rayxonning shoxi singan ekan. Unga rahmim kelib ketdi. Yoniga borib, singan shoxiga tirgak tirab qo'ydim. Shu payt bog'chadagi barcha gullar gapirib ketsa bo'ladimi! Ular yomon bolalar dastidan shikoyat qilishdi. Tarbiyachi navbatdagi mashg'ulotni o'sha yig'layotgan gul yonida o'tkazdi. Avvalo tarbiyalanuvchilar shoxlari sindirilgan, barglari va mevalari yulingan rayxonga o'z munosabatlarini bildirdilar.

Sarvar ismli bola: - Biz hammamiz rayxon gulini sevamiz. Chunki, bu gul bizga yoqimli hid taratadi. Barglaridan onalarimiz taom tayyorlashda foydalanadilar.

Adolat ismli qizcha: - Ayrim yomon bolalar rayxonning shoxlarini sindirib, unga ozor beribdilar. Axir gullar ham odamga o'xshaydi-ku! Ozor bersang, uning joni og'riydi. Biz gul va daraxtlarni asrashimiz, ularga ozor bermasligimiz kerak.

Shahodat ismli qizcha:- rayxon guli opamizga bizdan shikoyat qilib yig'labdi. Bu hammamizning kamchiligimiz. Biz shu gulga ozor bermaganimizda, u shikoyat qilmas edi. Anvar, Sanjar, Gulsevarlar hammamizni uyatga qo'ydi. Biz bunga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Shundan so'ng tarbiyachi quyidagi xalq topishmog'ini ular hukmiga havola etib, jhavob topishni so'radi:

Daraxtda to'q-qizil,

Bir olma pishdi.

Ikkiga ajratsam,

Munchoqlar tushdi.

(Anor)

Keyingi bosqichda gullar haqida topishmoq aytish yoki to'qish ularning o'zlariga topshirildi. Bolalar quyidagi topishmoqlarni to'qidilar:

1) turfa rangda tovlanar, ko'rsang bahri-diling yonar.

2) o'yga ham beradi ko'rk, bog'chaning malikasi u.

3) tikoni bo'lsa-da o'zi nozik.

Mashg'ulotning oxirida rayxon gulining shikoyatiga bolalarning quyidagi javob maktubi o'qib eshittirildi:

-Ey, rayxon guli, daraqiqat, biz sening qarshingda gunohkormiz.

-Shoxlaringni sindirib, barglaringni yulib, sening taningga ozor etkazdik.

-Buning uchun sendan kechirim so'raymiz.

- Sen chiroyli va xushbo'y gulsan. Biz sening o'zingni ham, barglaringni ham yaxshi ko'ramiz. Endi senga hech qachon ozor etkazmaslikka va'da beramiz. Agar barglaringni hidlamoqchi bo'lsak, bog'cha opamizning o'zlari uzib beradilar. Biz doimo seni asrashga va'da beramiz.

Sayir yakunida bolalarga quyidagi rasmlar berildi va ularga rasmlarda bolalar nima nima bilan mashg'ulligi so'raldi. (Ilova 2)

Bolalarda tabiat estetikasiga qiziqishni shakllantirishga doir no'anaviy vfi-mashg'ulotdan na'munalar keltiramiz.

Mavzu: Tabiat go'zallik manbai

Maqsad: a) tabiat go'zalligi haqida bolalarga tushuncha berish.

b) bolalarni tabiatni asrab-avvaylashga o'rgatish.

Uslub: Bolarni kichik guruhlariga bo'lib interfaol usulda mashg'ulot o'tish.

Jixoz: Turli xil rasm, plakatlar.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism - 2 daqiqa

II. Aqliy xujum - 5 daqiqa

Shavollar: tabiat nima? Atrofingizdagi chiroyli narsalarga nimalar kiradi?

Qanday rangli gullarni ko'rgansi?

III. Bolalarning izohlari

IV. Yangi mavzu bayoni

V. Mustahkamlash.

Mashg'ulotning borishi:

"Tabiat go'zallik manbai".

Ha, darhaqiqat bu gapda bir dunyo ma'no bor.

Mashg'ulot bayoni:

Xozirgi mashgu'lotimizni biz guruhlariga bo'lib o'tamiz.

Mashgu'lotda bolalar ikki guruhga bo'linadi.

Guruhlarning nomlanishi:

1-guruh: "Boychechak".

2-guruh: "Lola".

S: Qani aytinglarchi, tabiat o'zi nima? Yanglish aytib qo'yaman deb uyalmaganlar...

Faolroq qatnashing. Qaysi guruh jhavob berishga tayyor.

Diqqat! Tabiat, tushunchasiga ta'rifni birgalikda tuzamiz.

Tabiat - bu bizni o'rab turgan tevarak-atrof: ona erimiz, o'simliklar, hayvon va qushlar, tog'-toshlar, hashoratlar, suv, havo, tabiiy boyliklar, hattoki inson ham tabiatning bir bo'lagi hisoblanadi.

Tarbiyachi shavol beradi. Siz tabiat go'zalligini nimalarda ko'rgansiz?

Qani "Lola" guruhi jhavob berishga harakat qilinglarchi?

J: Gullarning turli ranglarida, kapalak qanotida, kamalak jilosida.

Yana kim qo'shimcha qiladi? 2 guruh quyidagi shavolga jhavob beringlarchi?

Qish va bahor fasllarida tabiat qanday tus oladi?

2-guruh. Bu fasllarda tabiatda o'zgarishi ro'y beradi, qishda kunlar soviydi, qor yog'adi, hamma joy oppoq qorga ko'miladi, bu holat shunchalik chiroyliki, bizni quvontiradi. Bahorda esa kunlar isiy boshlaydi. Qorlar eriydi, tevarak-atrof yam-yashil tus oladi, gullar ochiladi, yomg'ir yog'adi, momaqaldiroq bo'ladi.

Bu o'rinda tarbiyachi ulug' alloma Alisher Navoiy asarlarida yoritilgan hikoyatni bolalarga aytib beradi: "Bahor kunlarining birida Alisher Navoiy dalaga chiqib yong'oq ko'chati ekibdi. Shu vaqt podsho yo'ldan o'tayotgan ekan, shoirdan qanaqa ko'chat ekayotganini so'rabdi. Shoir yong'oq ko'chati ekanini aytibdi, shunda podshoh "Eh, shoir, bu daraxtingiz qachon mevaga kiradi-yu, Siz uni qachon yeysiz?", - debdi. Shunda shoir "Ko'chatni o'zim uchun emas, o'zgaralar uchun ekayapman. Hosilini men yemasam, kelajak avlod yeydi", - deb javob beribdi. Shunda podshoh bu javobga qoyil qolib, shoirga in'om (mukofot) beribdi. Shunda shoir "Ko'rdingizmi, shohim, men ekkan ko'chat bir kunda hosil berdi", - degan ekan.

Tarbiyachi shu o'rinda daraxtlarning foydali xususiyatlarini yoritib o'tadi.

Tarbiyachi: Bolalar mevali daraxtlarning foydasi faqat meva berishgina bo'lmay, balki ular havoni tozalaydi, jumladan, olma mevasi juda shifobaxsh. Olma daraxtining bir tupi o'zida qanchadan-qancha changni tutib qoladi, bir dona olmani 15 daqiqa chaynab esangiz og'zingizdagi mikroblarni o'ldiradi, shuning uchun yotish oldidan bir dona olma yeyish inson salomatligi uchun foydali hisoblanadi.

Tarbiyachi: bolalar tevarak-atrofimizga qarasak, tabiat shunchalik chiroyli, biz uni payqamagan vaqtlar ham bo'ladi.

Masalan, ariqchadan oqayotgan suvni bir eslaylik, u xuddi shishadek tiniq, jimirlab ko'zingizni qamashtiradi. Osmonchi, u juda chiroyli, moviy rangda, parcha bulutlar esa oppoq qordek ko'zga tashlanadi, kapalak qanotidagi ranglar, chiziqlarga diqqat qilganmisiz? Xuddi kimdir, ataylab, uning qanotiga turli rangdagi naqshlarni chizib qo'ygandek. Qushlar parvozini kuzatganmisiz, ular uchayotganda o'ziga xos tizim hosil qiladilar, bir tekisda, bir chiziqda parvoz qiladilar. Demak, bularning barchasi go'zallik hisoblanadi. Buning ijodkori tabiatning o'zi. Tevarak atrofni, tabiatni o'rganadigan fan ekologiya fani deyiladi.

Bugungi kun muammolari biri - ekologiya muammosi hisoblanadi. Insoniyat har doim ham bilib, bilmay ekologik holatni buzilishiga sababchi bo'ladilar. Insonning tabiatdan noto'g'ri foydalanishi uning ifloslanishini, kamayishini keltirib chiqarmoqda. Ekologik muammolar insonning hayot kechirishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Bunday holatni sodir bo'lishiga sabablardan biri atrof muhitga zararli moddalarning ta'siri hisoblanadi.

S: Nimalar havoning ifloslanishiga sababchi bo'ladi?

S: Tutun nimalardan tarqatadi? Ularning tarqalishiga nima va kim sababchi?

Atrof muhitni, shu jumladan, o'simlik va hayvonot olamini muhofaza qilish muammosi hozirgi davrda ekologik muammolarning eng muhim masalalaridan biri bo'lib keldi, chunki kishilar tabiatdan keragidan ortiq foydalanib, uning tabiiy manzarasini o'zgartirib, asrlar davomida vujudga kelgan hamjamolarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Natijada o'simlik va hayvon turlarining ko'plab, yo'qolib ketish xavfi tug'ilmoqda. Bu g'oyalar bilan bolalar tanishtirilgach, ular diqqati quyidagilarga tortiladi:

O'simlik va hayvon turlarining bunday yo'qolib ketishi inson uchun tiklab bo'lmaydigan salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Shavollar.

1. Tabiat go'zalligi deganda nimani tushunasiz?
2. Kuz faslida daraxt barglari qanday rangga kiradi?
3. Qushlar nega boshqa o'lkalarga uchib ketadilar?
4. Erta tongdagi gul bargidagi suv tomchisi nima deb ataladi?
5. O'yingizda qanday gullar, hayvonlarni parvarish qilasiz?
6. Qushlar uchun in yasaganmisiz?
7. Qizil kitob nimani bildiradi?

Savol-javobda faol qatnashgan bolalar rag'batlantiriladi.

“Qushlar bizning do'stimiz” mavzusi bo'yicha mashg'ulot ishlanmasi

Tabiatda turli tuman qushlar mavjudligi bolalarga tarbiyachi tomonidan hikoya metodi yordamida yoritiladi, so'ngra suhbat tashkil etiladi. Mashg'ulot jarayonida quyidagicha yo'l tutiladi: guruh bolalari uchta guruhga birlashtirilib, har bir guruh nomlanadi. Yozuv taxtasi uch qismga ajratiladi va yuqori qismiga “Bilimdon” deb yoziladi. So'ngra har bir bandning yuqori qismiga alohida-alohida qilib “Bilaman”, “Bilishni xohlayman”, “Bilib oldim” degan so'zlar yoziladi.

Tarbiyachi bolalarga savollar berib, ularning qushlar haqida qanday ma'lumotlarga egaliklarini aniqlaydi va ma'lumotlarni yozuv taxtasining birinchi (“Bilaman”) qismiga yozadi.

Izoh: bu harakat guruhlar tomonidan fikrlar to'la bayon etilgunga qadar davom etadi va har bir bolaning faol ishtirok etishiga e'tibor qaratiladi. Bolalar tomonidan bildirilayotgan noto'g'ri fikrlar ham inkor etilmaydi (chunki, bunday harakat bolalarning faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi).

Keyingi bosqichda tarbiyachi bolalardan yangi mavzu bo'yicha qanday ma'lumotlarni o'zlashtirish istaklari borligini so'rab, ularni o'ylashga da'vat etadi. Bolalar tomonidan bildirilgan fikrlar yozuv taxtasidagi ikkinchi ustun (“Bilishni xohlayman”)ga yoziladi.

So'nggi bosqichda rasm bilan ishlash metodi qo'llaniladi. Guruhlar rasmda “Qushlar bizning do'stimiz” mavzusi bo'yicha berilgan mavzuning muayyan qismini o'rganadilar. Guruhlar a'zolari mavzu materialining o'zlariga ajratilgan qismi bilan tanishib chiqqach, bog'larda yashovchi qushlar, ularning hayot tarzlari,

ekologik tizimdagi o‘rni haqidagi bilimlarini boyitadilar va yangi ma’lumotlarni aytadilar. Ularning fikrlari yozuv taxtasining uchinchi qismi (“Bilib oldim”)ga yozib qo‘yiladi.

Mavzuni o‘zlashtirish jarayonida tarbiyachi har bir guruhga alohida topishmoqlar ham aytadi. Bolalar topishmoqni topadilar. Topishmoq ham qushlar va tabiat haqida bo‘lishi lozim. Masalan shunday topishmoq bo‘lishi mumkin:

Ayvonimga in qurdi

Ayri dumli zo‘r me‘mor

Kuzda uchib janubga

Qaytib kelar har bahor (Qaldirg‘och)

* * *

U yoqqanda dala qir,

Kuladi qiqir-qiqir (yomg‘ir).

* * *

Qo‘lsiz oyoqsiz eshik ochar (shamol).

* * *

Tilla sandiq ochildi Ichidan zar sochildi (quyosh).

Mashg‘ulot yakunida tarbiyachi bolalarga Alisher Navoiyning qushlarga juda e‘tiborli va mehribon bo‘lganligi haqidagi hikoyani aytib beradi. Kunlarning birida chodirga uya qo‘ygan musichaning uyasi buzilmasligi uchun bog‘da o‘z chodirini qoldirib, mulozimlaridan biriga: “Musicha bola ochguncha siz shu yerda qoling. U bolalarini uchirib ketgach, keyin chodirni yig‘ishtirib borursiz” deb tayinlaganlari hikoya qilib beradi.

2.2.1-jadval

Tarbiyachi mashgʻulot yakunida yozuv taxtasida quyidagi maʼlumotlarni aks etadi:

Bilimdon		
Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Qushlar nomini. Qushlarning sayrashlarini Chiroyli ranglarini Qushlarning oziqlanishini.	Ayrim qushlarning nomini; Qushlarning tabiatni asrashga qoʻshgan hissasini; Alisher Navoiy qushlarga qanday gʻamxoʻrlik qilganligini.	Chittak bogʻda yil boʻyi yashaydi; Alisher Navoiy qushlarga gʻamxoʻrlik koʻrsatgan; Har bir bola qushlarga gʻamhurlik qilishlari lozim ekanligini.

Navbatda tarbiyachi har bir guruhga qushlar tasvirlangan mozaikani beradi. Bunga koʻra guruh bolalar tezda mozaikani oʻz oʻrniga joylashtirib berishlari soʻraladi. Qayysi guruh bolalari 1-chi boʻlib bajarsa – qizil kartochka, 2-bajargan guruhga-yashil, 3-bajargan guruhga sariq kartochka beradi.

Shunday qilib mashgʻulot yakunida guruhlarda yigʻilgan kartochlar hisoblab chiqiladi va bolalar taqdirlanadi.

Demak, yuqorida tavsiya etilgan mashgʻulot ishlanmalari tabiat haqida boʻlib, ulardan unumli foydalanish bolalarning estetik –ekologik tasavvurlarini yanada kengaytiradi.

2.3. Muammoga doir tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi va uning samaradorlik darajasi

Bolalarda tabiat estetikasiga ijobiy munosabatni tarbiyalash pedagogika fani va taʼlim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bolalik deb atalgan

davrda qiziquvchanlik, sinchkovlik, tabiatga intilish tuyg'usi kuchli bo'ladi. Biroq, hali hayotiy tajribasi etarli bo'lmaganligi bois o'z xatti-harakatlari, shu jumladan, tabiatga nisbatan munosabati mazmunini tahlil eta olmaydi. Bu tuyg'uni rivojlantirish, bolalarning qiziqishlarini yanada boyitishda MTMda tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari o'ziga xos imkoniyatlarga ega. Estetik-ekologik tarbiyaning mohiyati ko'p qirrali bo'lganligi bois bolalarda tabiat go'zalligini his etish borasidagi bilimlarni berishda ular yashayotgan hudud, uning geografik va iqlimiy xususiyatlari hamda ularning insonlar tomonidan tashkil etiluvchi ijtimoiy munosabatlar mazmunini boyitishdagi rolini hisobga olish zarur. Bolalarga tabiatni sevish, uning go'zalligidan bahramand bo'lish to'g'risidagi bilimlarni berishda atrof-muhit sharoitida ularning mazmunida er, suv va o'simlik resurslarini qo'riqlash muammolarining aks etishi, atmosfera havosining ifloslanishi, sanoat va kommunal korxonalar chiqitlarining oqar suv manbalariga tashlanishi holatini bartaraf etish yo'llari kabi masalalarning yoritilishiga erishish zarur. Tabiatni asrash borasida ma'rifiy ishlarni olib borish - bu barcha darajalardagi o'quv yurtlari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda jamoatchilikning burchiga aylanishi lozim.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, tabiat estetikasiga ijobiy munosabatni tarbiyalash, ekologik muammolarni bartaraf etish ayrim mamlakatlarda olib borilayotgan ijobiy harakatlardangina iborat bo'lib qolmay, xalqaro miqyosda jahon hamjamiyati mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro kelishuvlari asosida hal etiladigan ijtimoiy-siyosiy masaladir.

Tabiatga nisbatan bolalarda estek-ekologik tasavvurlarni shakllantirish jarayoni uzluksiz bo'lib, u insonning butun hayoti davomida amalga oshirilishi kerak. Estetik-ekologik tarbiya tarbiya umumiy tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo'lib, maktabgacha ta'limdagi barcha mashg'ulotlar, mashg'ulotlardan tashqari jarayonlarda ham amalga oshirilishi zarur.

Bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olib mashg'ulotlar jarayonida bolalarga estetik-ekologik bilim va tushnchalarni berish, bu borada predmetlararo

aloqadorlikdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bolalarning kundalik faoliyatini gigienik jihatidan to'g'ri tashkil etish MTM hamda oila oldida turgan dolzarb vazifadir.

Maktabgacha ta'lim muassasalari hozirgi vaqtda estetik-ekologik tushuncha va bilimlarning targ'iboti markaziga aylanishi, bolalarni estetik bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishning muhim omillaridan biri ota-onalarning estetik va ekologik bilimlarga ega bo'lishlariga erishish, ana shu maqsadda ota-onalar o'rtasida estetik va ekologik bilimlarni targ'ib etish maqsadga muvofiqdir. Estetik va ekologik bilimlarning maktabgacha ta'lim muassasasi jamoasi hamda jamoatchilik tomonidan yo'lga qo'yiluvchi kundalik faoliyat jarayonida bolalarga singdirib borilishiga alohida ahamiyat qaratish bu boradagi muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

Tevarak-atrof va tabiat haqidagi estetik-ekologik bilimlarni singdirib borish, mazkur o'rinda mujassamlashgan o'yinli-ta'limiy faoliyatdan foydalanish ijobiy natijalar beradi. Go'zallikka putur yetishi bu o'z navbatida ekologik muhitning buzilishi, uning oqibatlari, ekologik xavfning inson organizmiga ko'rsatuvchi salbiy ta'siri borasidagi bilimlardan bolalarni xabardor etish, ular tomonidan ekologik bilimlar asoslari mohiyatini to'g'ri tushunishga erishish hamda ularda atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyatli munosabatni qaror toptirish estetik va ekologik ta'lim-tarbiyaning ustuvor vazifalaridan sanaladi.

Ushbu vazifa maktabgacha ta'lim muassasalarida qanday amalga oshirilmoqda, tarbiyachi va bolalarning tabiatga estetik-ekologik bilim va tushunchalarni qay darajada shakllangan, mana shu savollarga javob olish maqsadida biz Qarshi shahrida joylashgan 17- MTMda tajriba sinov ishlarini olib bordik. Muammo yuzasidan dastlab 12 soat o'yinli-ta'limiy faoliyatlarni kuzatdik, tarbiyachi, metodistlarining faoliyatlarini o'rgandik. Olib borilgan tajriba ishlariga 10 nafar tarbiyachi va 25 nafar bola jalb qilindi. Ular ishtirokida maktabga tayyorlov guruhlarida o'yinli-ta'limiy faoliyatlarlarda estetik-ekologik mazmundagi tarbiyaviy tadbirlarning tashkil etilish holati o'rganildi.

Eksperimental ishlarni boshlashdan oldin bir qator tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi. Jumladan, tajriba-sinov ishlari olib boriladigan guruhlar belgilandi; bu guruhlarda faoliyat olib borayotgan tarbiyachilarning ish tajribalari o'rganildi. Tarbiyachilar bilan o'tkazilgan suhbatda eksperimentning maqsadi, kuzatish va uning natijalarini belgilash me'yorlari xususida fikr yuritildi.

Ana shu maqsadda tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan tarbiyachilar o'rtasida maxsus so'rovnoma o'tkazildi. So'rov savolnomasi mazmunidan quyidagi savollar o'rin oldi: (ILOVA-3)

Tarbiyachilar e'tiboriga havola etilgan savollarga qaytarilgan javoblar mazmuni quyidagicha bo'ldi:

1. 88 % tarbiyachi estetika tushunchasiga to'g'ri izoh berishdi. 12 % tarbiyachi esa noto'g'ri javob qaytarishdi.

2. Ushbu savol yuzasidan tarbiyachilarning barchalari bolalarga estetik-ekologik tasavvurlarni shakllantirish zarur deb hisoblaydilar. (100 %)

3. Uchinchi savol yuzasidan qaytarilgan javoblarning 82 % ida fikrlar aniq va to'laqonli bayon etilmadi. Biroq 10 % tarbiyachi allomalarning tabiat estetikasi va ekologiyaga oid fikrlarini to'g'ri bayon etganlar.

4. Bu savolga tarbiyachilar 37 % ish faoliyatida bolalar ongiga estetik-ekologik tasavvurlarni singdirishga ahamiyat qaratishlarini va ushbu yo'lda muayyan mavzular asosida suhbat, savol-javob o'tkazashlarini, qolgan 63 % tarbiyachi esa bolalarga faqat mavzuga oid bilimlarni berishga harakat qilishlarini aytib o'tganlar.

5. Ushbu savolga javob shundan dalolat beradiki, barcha tarbiyachilar bolalarning estetik-ekologik tasavvurlarini faqatgina mashg'ulotlarda hosil qiladilar xolos.

6. Tarbiyachilarning javoblari shuni ko'rsatadiki, MTMda o'rgatiladigan Atrofdagi olam bilan tanishtirish, tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari o'rtasida biz tanlagan mavzu yuzasidan o'zaro aloqadorlik mavjud.

7. Bolalarda tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishda estetik- ekologik ta'lim-tarbiyaning ahamiyati katta ekanligini barcha tarbiyachilar ta'kidlab o'tishdi.

8. Tabiat va atrof-muhitga nisbatan etkazilgan har qanday ko'rinishdagi salbiy holat ekomuhit, sanitariya-gigienik holatining keskin o'zgarishiga olib kelishi muqarrar ekanligi borasidagi fikrlar barcha tarbiyachilar omonidan qayd etilgan.

9. Tarbiyachilar keyingi yillarda chop etilayotgan estetika ekologika oid asar bilan tanish emaslar, faqatgina ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan estetik-ekologik tarbiyaga oid xabarlar bilan tanishlar. Ammo inson tomonidan tabiatga zarar yetkazilayotgani tarbiyachilarni ham tashvishga solmoqda.

10. Savolga olingan javob shundan iboratki, tarbiyachi va metodistlar fikricha tabiatniasrashga oid adabiyotlar sodda, ravon, shuningdek, asosiy tushuncha va iboralarning sharhlanishini ta'minlagan lug'at asosida chop etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Demak, oxirgi savol bo'yicha tarbiyachilar estetik-ekologik tarbiya jarayonini takomillashtirish bo'yicha foydali va o'rinli javoblarni qaytarganlar.

Demak, tarbiyachilar bilan olib borilgan so'rov natijalari shundan dalolat beradiki, bugungi kunda bolalar o'rtasida tabiatni asrab-avaylash, uni go'zalliginihis etishga oid bilimlarni targ'ib etishda oila, uzluksiz ta'lim tizimi, mahalla, jamoat tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, estetik, ekologik tarbiyani yo'lga qo'yishda mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda faoliyatni tashkil etish, o'zbek tilida adabiyotlarning nashr qilinishi hamda ekologik bilimlar asoslari borasida to'laqonli ma'lumotlar bera oluvchi ko'rsatmali qurollarning chop etilishiga erishish kabi takliflarning bildirilishi ijobiy holdir. Bu kabi yondashuvlar, tarbiyachilarning so'z yuritilayotgan muammoga nisbatan befarq emasliklaridan dalolat beradi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida ota-onalar ishtirokida ham og'zaki so'rovnomalar o'tkazildi. 17-MTM maktabga tayyorlov guruhi bolalarining 10 nafar ota-onalari bu so'rovnomada qatnashdi.

Ota-onalar tomonidan yuqorida qayd etilgan savollarga qaytarilgan javoblar mazmunini tahlil etish natijasida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. Ota-onalar bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan tabiatni asrab-avaylash, uning go'zalligidan bahramand bo'lish lozimligi haqidagi ma'lumotga egalilar.

2. Ota-onalarda farzandlarining talablarga rioya etish, shuningdek, ular o'rtasida tabiat boyliklarini asrab-avaylash, ekologik tarbiyani tashkil etilishiga nisbatan befarqlik mavjud.

3. Ota-onalar oila sharoitida tabiatra ijobiy munosabatni shakllantirish borasida bilimlarga ega emaslar.

Ota-onalarning javoblaridan ma'lum bo'ldiki, oila sharoitida ham aksariyat ota-onalar farzandlarida tabiatga ijobiy munosabatni shakllantirishga e'tibor qaratmaydilar. Mazkur masalalarga alohida e'tibor beruvchi ota-ona hamda farzandlar ham bor, biroq ularning soni juda kamchilikni tashkil etadi.

Olingan natijalarga ko'ra tarbiyachi –pedagoglar va ota-onalar o'rtasida bir qancha amaliy ishlar olib borildi. Ya'ni ular bilan "Go'zallik tabiatda", "Tabiatni asrash fuqarolik burchimiz", "Suv va havoni toza saqlaylik" mavzularida disputlar (munozalar) tashkil etildi. O'tkazilgan disputlarda tarbiyasi va ota-onalar o'zlarini erkin namoyon etdilar. Disputlarda ularning ham biz tanlangan mavzuga befarq emasliklari, har birimiz tabiatni asrash uchun mas'ul ekanligimizni bot-bot takrorlashdi. Shu bilan birga ota-onalar va tarbiyachilar bugungi kundagi tabiatning ayanchli ahvolidagi insoniyatning hissasi katta ekanligini ham aytib o'tishdi.

Shunday qilib, ota-onalar va tarbiyachilar bilan o'tkazilgan ekologik-estetik mavzudagi disputlardan so'ng ularga bilan yana bir bor og'zaki savollar bilan murojaat qildik va natijalar qo'yidagicha bo'ldi. Ushbu jadvalda tajriba boshi va yakunidagi ko'rsatkichlar o'rin olgan.

Tarbiyachi-pedagoglarning tajriba boshi va yakunidagi ko'rsatkichlari

Jadval-2.4.1.

	Savollar	Yuqori	O'rta	Quyi
1	Estetika so'zi qanday ma'noni anglatadi?	6/10	4/0	0
2	Bolalar o'rtasida tabiat estetikasiga oid bilimlarni targ'ib etib borishni ijtimoiy zaruriyat deb hisoblaysizmi?	10/10	0	0
3	I.Karimovning qaysi asarida ekologik muammolar va uni bartaraf etish chora tadbirlari haqida fikr yuritilgan ?	0/8	1/0	0
4	Mashg'ulotlar va tarbiyaviy ishlar jarayonida bolalarning estetik va ekologik tasavvurlarini shakllantirishda quvnoq daqiqalardan foydalanasizmi?	0/6	2/4	8/4
5	Faoliyatingiz jarayonida bolalarga estetik va ekologik tarbiya berishda syujetli rasmlardan foydalanasizmi?	0/8	1/2	9/0
6	Sizning fikringizcha, bolarga estetik-ekologik bilimlarni berishda fanlararo bog'liqlik mavjudmi?	2/6	3/4	5/0
7	Bolalarda tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishda estetik va ekologik ta'lim-tarbiyaning ahamiyati qanday?	10/10	0/0	0/0
8	Tabiat estetikasi holatining o'zgarishida inson faoliyati qanday o'rin tutadi?	6/10	4/0	0/0
9	Keyingi yillarda chop etilayotgan tabiat estetikasiga oid qanday asar bilan tanishsiz?	0/5	2/5	8/0
10	Tabiat estetikasiga ijobiy munosabatni tarbiyalash jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan taklif-mulohazalaringiz bormi?	2/5	3/5	5/0

Tajriba-sinov jarayonida biz bolalar bilan bir qancha mashg'ulotlarni tashkil etdik. Shulardan biri, "Suv-bu hayot" mavzuidagi o'yinli-talimiy faoliyat hisoblanadi.

Mashg'ulotning maqsadi: Suvning inson hayotida tutgan o'rni, uning xususiyatlari to'g'risida bolalarga ma'lumot berish, ularda suvni avaylab-asrash hissini tarbiyalashdan iborat.

Mashg'ulot metodi: o'zaro suhbat va shavol-jhavobdan iborat.

Tarbiyachi mashg'ulotni quyidagi xalq topishmoqlariga jhavob topishdan boshladi:

1) Ketaveradi, ketaveradi,

Orqasiga qaramaydi.

3) Oqib kelar shaldirab,

Oynadayin yaltirab (suv).

Topishmoqlarga javob olingach, suvning manbai xususida quyidagi savollar o'rtaga tashlanadi:

1) Biz istemol qiladigan suvlar qaerlardan oqib keladi?

2) Tasavvur qiling, suv bo'lmasa hayotimiz qanday kechadi?

3) Orol dengizining qurishi qanday oqibatlariga olib keldi?

4) Nega suvni boyligimiz deb ataymiz?

Berilgan savol bolalarda mustaqil ijodiy fikrlashni, eshitgan, ko'rgannarsalarini xotirada tiklashlarini, eng muhimi, bu xususda o'z nuqtai nazarlarini bayon qilishni talab etadi. Berilgan shavollar yuzasidan suhbat o'tkazish jarayonida suv, bulut, qor, yomg'ir haqida ularning o'zlaridan topishmoq aytish talab etildi.

1) Oyog'i yo'q, qochadi,

Qanoti yo'q, uchadi (bulut).

2) Sutdan tiniq, paxtadan oq (qor).

3) Shatir-shutur etadi,

Yerni cho'qib ketadi (yomo'ir).

Berilgan topishmoqlarga javob topish bolalarning tayyorgarlik darajasi va imkoniyatlariga bog'liq. Agar guruh bolalarining topishmoqqa javob topish darajasi past bo'lsa, tarbiyachi ularga qisman yordam beradi. Bu yordam rasmlar, javobning bosh harfini aytish, jumboqlanayotgan narsa yoki hodisa xususida qisqacha malumot berish tarzida amalga oshirildi. Mashg'ulotning oxirida "Nega suvni qaynatib ichish kerak?" - degan shavol o'rtaga tashlandi. Adar qaynamagan suvni ichsak, qornimiz og'rib qoladi", kasal bo'lib qolamiz", "Qaynamagan suvning

ichida har xil narsalar bo'ladi", "Qaynamagan suv loy bo'ladi, shuning uchun qorin og'riydi" kabilida o'z fikrlarini bildirishdi. Shunda tarbiyachi bitta stakanda qaynatilgan, ikkinchi stakanda qaynatilmagan suvni stol ustiga qo'yib, bolalarga ularni kuzatib, farqini aytishni taklif qildi. Bolalar qaynatilgan suv solinib tindirib qo'yilgan stakan ostiga ancha-muncha cho'kma yig'ilib qolganligini darhol ilg'aydilar. U juda tiniq edi. Qaynatilmagan suv esa stakanda xiraroq, loyqaroq ko'rinardi. Uning ostida cho'kmasi ham yo'q edi. Shundan so'ng tarbiyachi bolalarga yana bir karra suvni qaynatib ichish zarurligini, aks olda stakan ostiga cho'kkan iflos cho'kindi insonning ichiga tushishini, buning oqibatida har xil oshqozon-ichak kasalliklari kelib chiqib, salomatlikka zarar etkazishini alohida uqtirib o'tdi. Tarbiyachi topishmoqlar ustida ishlash jarayonida suv haqida tubandagi xalq maqollaridan unumli foydalandi:

- 1) Qora bulutdan tiniq suv tomar.
- 2) Cho'lga yog'sa-cho'l obod, ko'lga yog'sa ko'l obod.
- 3) Toqqa qalin qor tushgani- erning qonib suv ichgani
- 4) Suv bor erda hayot bor.

Ko'rinib turibdiki, biz bir oz boshqacha usuldan ya'ni bolalarning tabiat estetikasiga oid bilimlari shakllanganligini mashg'ulotlar tashkil etish orqali aniqladik. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarga ba'zi bir shavollar bilan murojlat qilindi. (Ilova -2)

Bu kabi mashg'ulotlarda bolalarga biz yuqorida taklif etgan syujetli rasmlarni namoyish qildik. Bolalar syujetli rasmlar orqali tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar, parvarish natijasida o'simliklarning rivojlanishi, fasllar o'zgarishi kabi hodisalarni anglab yetdilar. Shu bilan birga bolalarni tabiat qo'yniga sayohatga olib chiqdik. Sayohat bolalarda juda katta qiziqish uyg'otdi.

Demak, bolalarda tabiat estetikasiga qiziqish mavjud, biroq u zaif, yuzaki, tarqoq, hissiy anglanmagan, asosan bir lahzalik va o'tkinchi; tabiatdagi go'zallikni idrok etish qobiliyati zaif darajada; o'quvchi tabiat dunyosida go'zallik mavjud ekanligini bilmaydi, lekin unga qiziqish bor; o'z quvvati hofizasi imkoni darajasida

tabiatni, uning go'zalligini tasvirlashga harakat qiladi; tabiat go'zalligi mavzusida muloqotga kirishishi mumkin, ammo bu muloqotlar yuzaki xarakterga ega.

Biz tadqiqot ishimizda namunali oilalarni aniqlash maqsadida bir necha oila va ularda tabiatga munosabat yo'nalishida tashkil etilayotgan ishlar ko'lamini bilan tanishdik. Chunonchi, Qarshi shahridagi uylardan birida bo'ldik. Xonadon joylashgan er maydoni 6 sotixni tashkil etadi. Oila a'zolari ota-ona, bir qiz, ikki o'g'il va ikki kelin, ikki nafar nabiradan iborat.

Xonadonga kirishdanoq saramjon-sarishtalik, hovli sahnining ozodaligi ko'zga tashlanadi. Uy oddiy qurilgan, biroq tartibli bo'lganligi bois ko'rimli. Tomorqaga turli mevali daraxtlar va rezavorlar ekilgan. Hovlining tashqari va ichkari tarafida turli-tuman gullar ochilib buribdi. Gullarning tagi yumshatilgan va sug'orilgan. Shuningdek, oilada mushuk va it ham parvarish qilinadi.

Xuddi shu mahallada yashovchi yana bir xonadonda bo'lganimizda yuqorida qayd etilgan holatning aksiga duch keldik. Ushbu oila a'zolari ega bo'lgan er maydoni ham 6 sotixdan iborat. Oilada ota-ona, besh farzand (ularning ikki nafari uylangan, turmush o'rtoqlari bilan shu erda yashashadi) va ikki nafar nabira istiqomat qiladilar. Tomorqaga ekilgan daraxtlarga shakl berilmagan, ayrim shoxlari quriy boshlagan, taglari yumshatilmagan. Hovli sahni va uylar saramjon-sarishta emas.

Bu ikkala xonadondagi tafovut bir-biridan butunlay farq qiladi. Albatta ikkinchi honadondagi holat bola tarbiyasiga yomon ta'sir ko'rsatadi. Bu borada biz ota-onalarga ham muntazam pedagogik bilim berish lozim deb hisoblaymiz.

Tajriba ishlarilari natijalaridan ma'lum bo'ldiki, bolalar estetik va ekologik qoidalarga rioya etish uchun harakat qilmoqdalar, ammo ularda hali etarli darajada estetik did bilim, ko'nikma va malakalar hosil bo'lmagan, shu bois nafaqat bolalar, balki ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasida ham targ'ibot ishlarini olib borish va bu borada samaradorlikka erishish muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyachining ish rejalarida ham estetik va ekologik tarbiyaga oid tadbirlar o'tkazish chorasining deyarli yoritilmaganligi ham bunday holatga barham berish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu yo'lda ekskursiya, "Tabiat go'zalligidan

bahramand bo'ling" mavzusidagi suhbat va uchrashuvlarning uyushtirilishini belgilanishi va ularning o'tkazilishiga erishish ma'lum darajada bo'lsa ham muvaffaqiyat sanalar edi.

XULOSALAR

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'rganilgan ilmiy, pedagogik-psixologik manbalar shundan dalolat beradiki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalari estetik- ekologik tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir.
2. Kuzatish ishlari va to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish bolalar estetik- ekologik tasavvurlari shakllanganligining mavjud darajasi haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini berdi va bolalarda tabiatni asrab-avaylashni shakllantirishga ko'maklashadigan didaktik vositalar hamda manbalarni aniqlashga yordam berdi.
3. Olingan natijalar faqat mashgu'lotda emas, balki mashgu'lotdan tashqari tadbirlar ustida izchil ish olib borish zarurligini ko'rsatdi.
4. Asosiy diqqat-e'tiborni maktabga tayyorlov guruhlardagi "Atrofimizdagi olam", "Tabiat bilan tanishtirish" mashgu'lotida estetik – ekologik tasavvurlarni shakllantirishning turli omillari va vositalaridan foydalanib, uning samaradorligini oshirishga qaratish lozimligi aniqlandi.
5. Mashgu'lot jarayonida turli noan'anaviy mashgu'lot turlaridan samarali foydalanish bolalarida tabiat go'zalligini his etishni va unga ijobiy munosabatni shakllantirishning muhim omili ekanligi belgilandi.
6. Bolalarida tabiatga qiziqishni shakllantirishda tarbiyachilar asosiy kuch bo'lib, ularni muhim ilmiy-metodik tavsiyalar hamda nazariy ma'lumotlar bilan qurollantirish zaruriyati mavjud.
7. Bolalarida tabiat go'zalligini his etish va unga ijobiy munosabatni tarbiyalashda sayohatlarni tashkil etish maqsadga muvofiqligi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi //O'zbekiston Respublikasi. T.: O'zbekiston, 1992. – 46 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. – T.: O'zbekiston, 1997. - 214 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi erak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariiga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi// Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
- 4.O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017—2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.
- 5.Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. - 326 b.
6. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim .Ta'lim taraqqiyoti. 34-maxsus son. - T.: «Sharq» NMK, 1999. – B. 480.
7. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik (A.Mahkamov tarj.). T.: Sharq 2001. y. 70 b.
- 8.Al-Buxoriy, Imom Ismoil. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). - T.: O'zbekiston, 1990. - 132 b.
9. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.–160 b.
- 10.Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – T.: O'zbekiston, 1990. – 199 b.
- 11.Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. Al-Jome' as-sahih (Ishonarli to'plam). 4 kitob. 1-kitob. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991. – 550 b.
- 12.Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiyat (Vatan fidoiylari). – T.: Akademiya, 2000. – 630 b.

13. Almetov N. Pedagogika. Savollar va javoblar. O'quv qo'llanma.-Almati: Nurli beyne, 2004.-201 b.
14. Amir Temur o'g'itlari (to'plam) Tuzuvchilar: B. Ahmedov, A. Aminov.-T.: Navro'z, 1992. – 64 b.
15. Boburnoma. Mahmud Sa'diy, Najmiddin Komilov. T.: O'qituvchi, 2008. 286 b.
16. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri.- T.: O'zbekiston, 1992. 237 b.
17. Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari (Uch jildlik saylanma).– T.: Xalq merosi, 1-jild. 1993. 182 b.
18. Jo'raev A. Tarbiyaviy mashgu'lotni o'tish. – T.: Tarbiyachi, 1994. – 136 b.
19. Ziyomuhamedov B., Abdullaeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya. – T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 2001. – 80 b.
20. Mahmudov Yu. Ekologiyadan qo'llanma. – T.: Fan, 1997. – 42 b.
21. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. -Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 510 b.
22. Muhammad payg'ambar alayhis-salom qissasi. Qadislar. -T.: Kamalak, 1991. - 145 b.
23. Munavvarov A. Pedagogika. -T.: Tarbiyachi, 1996 y. -200 b
24. Navro'z va tabiat sirlari. -T.: Kamalak, 1991. - 121 b.
25. Qur'oni karim. Tuzuvchi. Shayx Abdulaziz Mansur.-T.: “Toshkent islom universiteti. 2007. 617 b.
26. www.gov.uz.
27. Yusupov E. Yusupov E. Falsafa. T: Sharq, 1999. -8 b.
28. Ўзбек педагогикаси антологияси. Икки жилдлик. (–Тузувчи муаллифлар: К.Ҳошимов, С.Очил).-Тошкент: Ўқитувчи, 1995. - 464 б.
29. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. T.: 2008. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. ” Davlat ilmiy nashriyoti, 326 b.
30. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti T.: 2010 y,- 534 b.

ILOVALAR

Bolalarga murojaat qilingan shavollar

1. Daraxtlarga e'tiboringizni qaratganmisiz, ular bir biridan nimasi bilan farq qiladi?
2. Daraxtlar qachon gullaydi, daraxt gullari qanday rangda?
3. Qanday daraxt turlarini bilasiz?
4. Siz ким билан гул ёки daraxt ko'chatini ekkansiz?
5. O'simliklarning siz uchun foydali tomoni bormi?
6. Kuz faslida daraxt barglari qanday rangga kiradi, bu holatni kuzatganmisiz?
7. Sizga qanday gullar yoqadi, nima uchun?
8. Kamalak qanday rangda ?
9. Go'zallik deganda nimani tushunasiz?
10. Quyosh chiqayotganini kuzatganmisiz?
11. Suvning rangi qanday?
12. Yomg'ir, qor nega yog'adi?
13. Shabnam deganda nimani tushunasiz?
14. Yulduzlarni kuzatganmisiz?
15. Oyda nimaning tasviri bor ?

Ilova-2

Tarbiyachilarining estetik-ekologik bilimlarini aniqlashga qaratilgan savolnoma

1. Estetika so'zi qanday ma'noni anglatadi?
2. Bolalar o'rtasida tabiat estetikasiga oid bilimlarni targ'ib etib borishni ijtimoiy zaruriyat deb hisoblaysizmi?
3. I.Karimovning qaysi asarida ekologik muammolar va uni bartaraf etish chora tadbirlari haqida fikr yuritilgan ?
4. Mashg'ulotlar va tarbiyaviy ishlar jarayonida bolalarning estetik va ekologik tasavvurlarini shakllantirishda quvnoq daqiqalardan foydalanasizmi?
5. Faoliyatingiz jarayonida bolalarga estetik va ekologik tarbiya berishda syujetli rasmlardan foydalanasizmi?
6. S
izning fikringizcha, bolarga estetik-ekologik bilimlarni berishda fanlararo bog'liqlik mavjudmi?
7. Bolalarda tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishda estetik va ekologik ta'lim-tarbiyaning ahamiyati qanday?
8. Tabiat estetikasi holatining o'zgarishida inson faoliyati qanday o'rin tutadi?
9. Keyingi yillarda chop etilayotgan tabiat estetikasiga oid qanday asar bilan tanishsiz?
10. Tabiat estetikasiga ijobiy munosabatni tarbiyalash jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan taklif-mulohazalaringiz bormi?

Ilova-3



